Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin: maktab psixologlari faoliyatini kuchaytirish; o‘quvchilar bilan psixokorreksion treninglar o‘tkazish; ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish; xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish; virtual qaramlik profilaktikasini tashkil etish; o‘quvchilar o‘rtasida empatiya va tolerantlikni rivojlantirish.

Shunday qilib, ta’lim muhitida ijtimoiy-psixologik xavfsizlikni ta’minlash o‘quvchilarning barkamol shaxs sifatida shakllanishi, ularning ruhiy salomatligi hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ergashev N. Shaxs va jamiyat psixologiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016. – 240 b.
2. Fromm E. The Art of Loving. – London: Routledge, 2006. – 187 p.
3. G‘oziev E.G‘. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2020. – 312 b.
4. Гилемханова Э.Н. Социально-культурная безопасност школников. – Москва: Просвещение, 2015. – 210 с.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 256 b.
6. Mahmudov A. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 224 b.
7. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 2004. – 293 p.
8. Nishonova Z.T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 280 b.
9. To‘xtaboyeva M. Ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 198 b.
10. Xolmatov X. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022. – 176 b.

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI

Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li
FarDU, Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
davronmominov02@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining kasb tanlash jarayoniga ta’sir etuvchi psixologik va ijtimoiy omillar kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy o‘zini-o‘zi belgilash jarayonining murakkabligi, ichki (qiziqish, moyillik, kasbiy identifikatsiya) va tashqi (oila, ijtimoiy muhit, moddiy omillar) determinantlar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqilgan. Empirik natijalar “Kasb tanlash motivlari” ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi asosida olingan bo‘lib, ular ichki motivatsiyaning ustunligini hamda ijtimoiy omillarning qo‘shimcha, ammo muhim rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, gender va hududiy tafovutlar kasb tanlash jarayonining ijtimoiy-madaniy shartlanganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari kasbiy yo‘naltirish tizimini takomillashtirishda shaxsiy qiziqishlar, ijtimoiy ta’sir va psixologik barqarorlikni rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: kasb tanlash, kasbiy o‘zini-o‘zi belgilash, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, ijtimoiy omillar, gender farqlari, kasbiy yo‘naltirish, o‘quvchilar, psixologik omillar.

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы психологические и социальные факторы, влияющие на процесс выбора профессии учащимися специализированных школ. В исследовании рассмотрена сложность процесса профессионального самоопределения, а также взаимосвязь внутренних (интерес, склонность, профессиональная идентификация) и внешних (семья, социальная среда, материальные факторы) детерминантов. Эмпирические результаты были получены на основе социально-психологического опросника «Мотивы выбора профессии» и подтверждают доминирование внутренней мотивации, а также дополнительную, но важную роль социальных факторов. Кроме того, гендерные и территориальные различия свидетельствуют о социально-культурной обусловленности процесса выбора профессии. Результаты

исследования обосновывают необходимость совершенствования системы профессиональной ориентации с учетом личных интересов, социального влияния и развития психологической устойчивости.

Ключевые слова: выбор профессии, профессиональное самоопределение, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, профессиональная идентификация, социальные факторы, гендерные различия, профессиональная ориентация, учащиеся, психологические факторы.

Abstract. This article comprehensively analyzes the psychological and social factors influencing the career choice process of specialized school students. The study examines the complexity of professional self-determination and the interrelation of internal determinants (interest, inclination, professional identification) and external determinants (family, social environment, material factors). The empirical results were obtained using the socio-psychological questionnaire “Motives for Career Choice” and confirm the dominance of intrinsic motivation as well as the additional but significant role of social factors. Furthermore, gender and regional differences demonstrate the socio-cultural conditioning of the career choice process. The findings substantiate the need to improve the career guidance system through the development of personal interests, social influence, and psychological stability.

Keywords: career choice, professional self-determination, intrinsic motivation, extrinsic motivation, professional identification, social factors, gender differences, career guidance, students, psychological factors.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi yutuqlarini joriy etish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirishga qaramay, ko‘plab o‘smirlar o‘zlari uchun maqbul kasbni tanlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Mehnat bozori jadal transformatsiyalanayotgan sharoitda ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiya yetarli darajada emasligi ushbu muammoni yanada murakkablashtirmoqda. Shu sababli o‘quvchilarga kasb tanlashda samarali psixologik va pedagogik yordam ko‘rsatish dolzarb masala sifatida namoyon bo‘ladi, chunki aynan o‘smirlik davri shaxsning ilk va muhim kasbiy qarorlari qabul qilinadigan bosqich hisoblanadi. Zamonaviy kasblar olami axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji va jamiyat ehtiyojlarining o‘zgarishi ta’sirida tez sur’atlar

bilan yangilanmoqda. Natijada umr davomida faqat bitta kasbni egallashga asoslangan an’anaviy model o‘z ahamiyatini yo‘qotib bormoqda. Yangi kasblarning paydo bo‘lishi va mavjud kasblarning transformatsiyasi yoshlarning kasbiy moslashuvchanligini oshirishni, ya’ni hayot davomida bir necha bor kasbini o‘zgartirishga tayyor bo‘lishni talab etadi [1].

Ilmiy tadqiqotlar kasbiy o‘zini-o‘zi belgilash jarayoni o‘quvchilar uchun psixologik jihatdan murakkab bosqich ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu davrda yoshlar ko‘pincha noaniqlik, tashvish va kelajakdan xavotir hissini boshdan kechiradilar. Barcha o‘quvchilar ham mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyor emasligi kuzatiladi va bu holat hudud yoki ta’lim muassasasi turidan qat’i nazar namoyon bo‘ladi. Kasbiy qarorlarning shakllanishida tashqi omillar bilan bir qatorda ichki psixologik omillar - kognitiv qiziqishlar, qadriyat yo‘nalishlari, o‘z qobiliyatlarini anglash darajasi hamda ijtimoiy intellekt muhim rol o‘ynaydi [1]. Kasbiy o‘zini-o‘zi belgilashning murakkabligi shaxs rivojlanishining normativ bosqichlariga xos ichki ziddiyatlar bilan izohlanadi. Identifikatsiya jarayonida o‘smirlar turli ijtimoiy rollar va imkoniyatlarni solishtiradilar, bu esa tabiiy ravishda noaniqlik va emotsional zo‘riqishni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, kasbiy noaniqlik darajasi yuqori bo‘lgan yoshlar ko‘proq psixologik diskomfort va qoniqmaslikni boshdan kechiradilar. Bu holat ko‘pincha o‘zini anglashning past darajasi hamda yetarli kasbiy axborotga ega emaslik bilan kuchayadi.

Shu bilan birga, ta’lim tizimi va psixologik-pedagogik yondashuvlar insonni o‘z hayotiy trayektoriyasini mustaqil ravishda belgilovchi subyekt sifatida talqin etadi. Biroq, zamonaviy axborot muhitida variantlarning haddan tashqari ko‘pligi yoshlar uchun tanlovni murakkablashtirib, “tanlov paralichi” holatini yuzaga keltirmoqda. O‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga ko‘ra, mustaqil qaror qabul qilish ichki motivatsiyani kuchaytiradi, biroq imkoniyatlarning ortiqchaligi, aksincha, ikkilanish va noaniqlikni kuchaytirishi mumkin. Natijada yoshlar orasida noto‘g‘ri kasb tanlash qo‘rquvi shakllanib, bu ularning psixologik farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [2]. Shu bois kasbiy yo‘naltirish tizimi faqat axborot berish bilan cheklanmasdan, balki o‘quvchilarning qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilishi zarur. Xususan, alternativ variantlarni tahlil qilish, ustuvorliklarni belgilash, shuningdek psixologik barqarorlik va o‘zini anglash darajasini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks yondashuv kasb tanlash jarayonining samaradorligini ta’minlaydi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Zamonaviy tadqiqotlarda o‘quvchilarning kasb tanlash jarayoni ko‘p omilli psixologik va ijtimoiy hodisa sifatida keng o‘rganilmoqda. Xususan, E.A. Danilova maktab bitiruvchilari orasida kasb tanlash motivatsiyasini tahlil qilib, o‘quvchilarning kasbiy tanlovi asosan shaxsiy qiziqish, moyillik va qobiliyatlarga tayanishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bitiruvchilarning 60 foizi kelajak kasbini aniqlab bo‘lgan bo‘lib, tanlangan kasblar ko‘proq ijtimoiy muloqotga asoslangan sohalarga to‘g‘ri keladi [4]. Ushbu natijalar bizning tadqiqotimiz bilan hamohang bo‘lib, unda sharqona madaniyat va oila institutining kasb tanlashdagi yetakchi roli aniqlangan.

A.A. Onipko o‘rta maktab o‘quvchilarining kasbiy o‘zini-o‘zi belgilashini sotsiologik yondashuv asosida tahlil qilib, yoshlar orasida individual qaror qabul qilish va o‘ziga ishonch darajasi ortib borayotganini ta’kidlaydi [5]. Bizning natijalar ham ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarida shaxsiy fikr va mustaqil tanlov ustuvorligi kuchayib borayotganini ko‘rsatdi.

Blazquez C. va hamkorlari kasb tanlashga ta’sir etuvchi omillarni diskret tanlov modeli asosida o‘rganib, maktab turi, jins, akademik muvaffaqiyat, ota-onaning ta’lim darajasi va kasbi muhim determinantlar ekanligini aniqlaganlar. Tadqiqotda gender farqlari yaqqol namoyon bo‘lib, o‘g‘il bolalar ko‘proq STEM yo‘nalishlariga, qizlar esa gumanitar va ijtimoiy sohalarga moyillik bildirishi qayd etilgan [6]. Bizning tadqiqotda ham o‘quvchilarning tanlovida ota-ona ta’siri, moddiy omillar va kasbning ijtimoiy mavqeyi sezilarli ahamiyatga ega ekani tasdiqlandi.

Xalqaro tadqiqotlarda kasbiy maslahat xizmatlarining ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Kasbiy maslahat o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ongli qaror qabul qilish imkonini yaratadi hamda noto‘g‘ri tanlov ehtimolini kamaytiradi [7]. Maree tadqiqotida esa madaniy omillarning, xususan gender rollarining yoshlarning kasb tanlashiga ta’siri ko‘rsatilgan bo‘lib, ayrim jamiyatlarda bu omillar kasbiy imkoniyatlarni cheklashi mumkinligi qayd etiladi [8]. Ushbu holatni O‘zbekiston sharoitida ham qisman kuzatish mumkin, biroq zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida xotin-qizlarning kasbiy faolligi ortib borayotgani gender cheklovlarining asta-sekin kamayib borayotganini ko‘rsatadi.

AQSh tajribasida maktab maslahatchilari kasb tanlash jarayonining muhim subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. American School Counselor Association ma’lumotlariga ko‘ra, ular o‘quvchilarga professional yo‘naltirish beruvchi malakali

mutaxassislar hisoblanadi [9]. O‘zbekiston sharoitida ham bu yondashuv dolzarb bo‘lib, so‘nggi yillarda maktab psixologlari faoliyati rivojlanmoqda, biroq kasbiy maslahat tizimi oila bilan hamkorlikda olib borilgandagina yuqori samaradorlikka erishadi.

Angliyada joriy etilgan Careers Hubs modeli kasbiy yo‘naltirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tizim sifatida e’tirof etilib, hub maktablarda natijalar yuqoriroq ekanligi aniqlangan [10]. Bu natijalar ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining kasbiy tasavvurlari kengroq ekanligi haqidagi bizning kuzatuvlar bilan mos keladi.

Larran va Hein tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida maktab maslahatchilariga ehtiyoj yuqori ekani hamda ushbu yo‘nalishda maxsus tayyorgarlik zarurligi ta’kidlanadi [11]. O‘zbekiston amaliyotida esa kasbiy yo‘naltirish ko‘proq umumiy psixologik xizmat doirasida amalga oshirilmoqda, bu esa ixtisoslashtirilgan mutaxassislar tayyorlash zaruratini ko‘rsatadi.

Nazareno va hamkorlari o‘quvchilarga ongli kasb tanlashda yordam beruvchi maxsus kurslarni joriy etish zarurligini asoslaydilar [12]. Bunday kurslar o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlashga xizmat qilishi bilan birga, milliy-madaniy omillarni hisobga olgan holda tashkil etilganda yanada samarali bo‘ladi.


Sadirova M.S. va boshqalar esa kasb tanlashda qo‘llanilayotgan ayrim an’anaviy usullar, jumladan standart testlar va umumiy maslahat mashg‘ulotlarining samaradorligi pastligini ta’kidlaydilar [13]. Zamonaviy yondashuvlar kasbiy yo‘naltirishda kompleks diagnostika va individual yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, shahar va qishloq o‘quvchilari o‘rtasida mavjud tafovutlar ham muhim omil bo‘lib, shahar o‘quvchilari qo‘shimcha resurslardan faol foydalanadi, qishloq o‘quvchilari esa ko‘proq maktab bilan cheklanib qoladi [14].

Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kasb tanlash jarayoni individual, ijtimoiy va madaniy omillar o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Shu bois kasbiy yo‘naltirish tizimini takomillashtirishda zamonaviy diagnostik metodlarni joriy etish, hududiy tafovutlarni kamaytirish hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlariga mos yondashuvni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari shaxsini kasbiy faoliyatga yo‘naltirish uchun ularning qiziqishi va qobiliyatini aniqlash, kasbiy tipga mosligi va kasbiy faoliyat motivatsiyalarini diagnostika qilish hamda ixtisoslashtirilgan maktab

o‘quvchilari shaxsining individual xususiyatlariga muvofiq bo‘lgan kasb tanlashiga yordam berish lozim. O‘ziga munosib bo‘lgan kasbni tanlash natijasida ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilari kasbiy taraqqiyotga erishadi. Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining kasbiy mosligini aniqlash uchun bir necha diagnostik metodikalar qo‘llaniladi.

Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining kasb tanlashiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida “Kasb tanlash motivlari” ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi qo‘llanildi.(IPS) qo‘llanildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. “Nima uchun bu kasbni tanladingiz?”

1-rasmda keltirilgan “Nima uchun bu kasbni tanladingiz?” savoliga berilgan javoblar tahlili shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning kasb tanlash motivatsiyasi murakkab psixologik tuzilishga ega bo‘lib, unda ichki va tashqi omillar o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Olingan natijalarga ko‘ra, barcha hudud va jins guruhlarida eng yuqori ko‘rsatkich “bolalikdan shu kasbni yoqtirganim uchun” javobiga to‘g‘ri keladi. Xususan, bu ko‘rsatkich Andijon qizlarida maksimal darajada (100%) qayd etilgan bo‘lsa, boshqa guruhlarda ham yuqori darajada saqlanib qolgan (Farg‘ona: 64%-66%; Namangan: 85%–88%). Mazkur holat kasb tanlash jarayonida ichki qiziqish, shaxsiy moyillik va erta shakllangan kasbiy identifikatsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu natija motivatsiyaning zamonaviy nazariyalarida ta’kidlanganidek, ichki motivatsiya


kasbiy barqarorlik va qoniqishning muhim psixologik prediktori ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, “yaqinlarim (ota-ona, oila a’zolari) xohlaganligi uchun” motivi nisbatan pastroq darajada ifodalangan bo‘lsa-da, jinslar kesimida sezilarli tafovutlar kuzatildi. Xususan, qizlarda ushbu ko‘rsatkich o‘g‘il bolalarga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi (masalan, Farg‘ona qizlarida - 24%, Namangan qizlarida - 11%). Bu holat ijtimoiy ta’sir va gender ijtimoiylashuvi jarayonlari bilan izohlanadi. Ya’ni, an’anaviy jamiyatlarda qizlar ko‘proq ijtimoiy kutishlar va oila qarashlariga moslashishga moyil bo‘lishadi. Natijada kasb tanlash jarayonida ota-ona va yaqinlarning roli ular uchun muhimroq psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

“Oylik maoshi ko‘pligi uchun” motivi esa guruhlar kesimida notekis taqsimlanganligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, bu omil o‘g‘il bolalarda nisbatan yuqori (Andijon o‘g‘illarida - 33%, Farg‘ona o‘g‘illarida - 26%), qizlarda esa ayrim holatlarda juda past (masalan, Andijon qizlarida - 0%). Mazkur natija kasb tanlashda iqtisodiy manfaatlar va moddiy rag‘batlantirish omillari erkak jins vakillarida ko‘proq ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Bu esa jamiyatda shakllangan gender rollari, xususan, erkaklarning “asosiy ta’minlovchi” sifatidagi ijtimoiy roli bilan bog‘liq psixologik stereotiplar ta’sirini aks ettiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy kesimda ham muayyan farqlar kuzatildi. Jumladan, Andijon qizlarida ichki motivatsiyaning keskin ustunligi kasbiy yo‘nalganlikning barvaqt va mustahkam shakllanganligini bildiradi. Namangan respondentlarida esa barcha motivlar nisbatan muvozanatli taqsimlangan bo‘lib, bu kasb tanlashda ko‘p omillilik va qaror qabul qilishning kompleks xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Farg‘ona respondentlarida esa ijtimoiy va moddiy omillar nisbatan faolroq rol o‘ynaganligi kuzatildi. Bu farqlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, ta’lim muhitining o‘ziga xosligi va madaniy qadriyatlar tizimi bilan izohlanadi.



2-rasm. “Kasb tanlashda asosiy e'tibor qaratgan narsangiz nima?”

2-rasmda “Kasb tanlashda asosiy e’tibor qaratgan narsangiz nima?” savoliga berilgan javoblar hudud va jins kesimida tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning kasb tanlash jarayonida bir nechta motivlar ishtirok etsa-da, ularning ahamiyat darajasi turlicha namoyon bo‘ladi.

Avvalo, “shu kasbni bolaligimdan yoqtirganligim uchun” motivi barcha guruhlarda eng yuqori ko‘rsatkichlarni egallaganligi aniqlandi. Jumladan, Farg‘ona o‘g‘illarida (55%), Andijon qizlarida (54%), Namangan o‘g‘illarida (53%) va Namangan qizlarida (50%) ushbu motiv yetakchi omil sifatida qayd etilgan. Bu holat kasb tanlashda ichki qiziqish va shaxsiy moyillik asosiy determinant ekanligini ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan bu natija shaxsning kasbiy o‘zini anglash jarayoni, ya’ni o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos faoliyatni tanlashga intilishi bilan izohlanadi. Ichki motivatsiyaning ustunligi esa kelgusida kasbiy barqarorlik va faoliyatdan qoniqish darajasining yuqori bo‘lishini ta’minlovchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

Ikkinchi muhim omil sifatida “bugungi kundagi mavqeyi” motivi ajralib turadi. Ayniqsa, Farg‘ona qizlarida (50%), Andijon o‘g‘illarida (48%) va Namangan qizlarida (43%) ushbu ko‘rsatkich yuqori darajada qayd etilgan. Bu natija kasb tanlashda ijtimoiy prestij va jamiyatdagi mavqe muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Psixologik nuqtayi nazardan, bu holat shaxsning ijtimoiy identifikatsiyaga bo‘lgan ehtiyoji, ya’ni jamiyatda o‘z o‘rnini topish va ijtimoiy e’tirofga erishish istagi bilan bog‘liq. Ayniqsa, yoshlik davrida kasb orqali ijtimoiy maqomga ega bo‘lish motivi kuchli shakllanishi ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan.

“Oylik maoshining qanchaligi” motivi esa barcha guruhlarda eng past ko‘rsatkichlarni namoyon etgan. Eng yuqori qiymat Andijon o‘g‘illarida (24%) va Namangan o‘g‘illarida (22%) kuzatilgan bo‘lsa-da, qolgan guruhlarda bu ko‘rsatkich ancha past (masalan, Andijon qizlarida - 8%, Namangan qizlarida - 7%). Bu natija shuni anglatadiki, respondentlar kasb tanlashda moddiy manfaatlarni ikkilamchi omil sifatida qabul qilmoqdalar. Psixologik jihatdan bu holat ehtiyojlar ierarxiyasi doirasida izohlanadi, ya’ni yuqori darajadagi ehtiyojlar - o‘zini ro‘yobga chiqarish, qiziqish va ijtimoiy e’tirof - moddiy manfaatlardan ustun turadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda ayrim farqlar kuzatiladi. Farg‘ona respondentlarida ijtimoiy mavqe va ichki qiziqish omillari o‘zaro yaqin darajada namoyon bo‘lgan bo‘lsa, Andijon respondentlarida ichki motivatsiya yanada ustunroq ekani ko‘rinadi. Namangan respondentlarida esa barcha motivlar nisbatan muvozanatli taqsimlangan bo‘lib, bu kasb tanlash jarayonining kompleks va ko‘p omilli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, respondentlarning kasb tanlash jarayoni ko‘p omilli psixologik tizim sifatida namoyon bo‘lib, unda ichki motivatsiya yetakchi determinant hisoblanadi. Har ikkala tahlil natijalari “bolalikdan shu kasbni yoqtirganim uchun” motivi barcha hudud va jins guruhlarida ustun ekanligini ko‘rsatdi. Bu holat kasbiy yo‘nalganlikning erta shakllanishi hamda kasb tanlashda ichki qiziqish, moyillik va identifikatsiya asosiy rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Psixologik jihatdan bu shaxsning o‘zini anglash va imkoniyatlariga mos faoliyatni tanlashga intilishi bilan izohlanadi hamda kelgusida kasbiy barqarorlik va qoniqish ehtimolini oshiradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy omillarning ham sezilarli ta’siri aniqlandi. Xususan, yaqinlar ta’siri va kasbning ijtimoiy mavqeyi ayrim guruhlarda muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan. Qizlarda yaqinlar ta’sirining yuqoriligi gender ijtimoiylashuvi bilan izohlanadi. Kasbning ijtimoiy mavqeyi esa respondentlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topish va e’tirofga erishish ehtiyoji bilan bog‘liq bo‘lib, barqaror ikkilamchi motiv sifatida qayd etildi.

Moddiy omillar, xususan, oylik maosh bilan bog‘liq motivlar nisbatan past ko‘rsatkichlarni egallagan. Bu respondentlar kasb tanlashda iqtisodiy manfaatlarni ikkilamchi omil sifatida qabul qilishlarini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu motiv o‘g‘il bolalarda yuqoriroq bo‘lib, bu holat jamiyatda shakllangan gender rollari bilan izohlanadi.

Hududiy kesimda ayrim tafovutlar kuzatilgan bo‘lsa-da, umumiy tendensiya saqlanib qoladi: Andijon respondentlarida ichki motivatsiya kuchliroq namoyon bo‘lgan, Farg‘ona va Namangan guruhlarida esa motivlar nisbatan muvozanatli taqsimlangan. Bu esa kasb tanlash jarayonining individual va ijtimoiy-madaniy omillar integratsiyasiga asoslangan murakkab tizim ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari kasb tanlashda ichki qiziqish va shaxsiy moyillik ustuvorligini, ijtimoiy omillarning qo‘shimcha, ammo muhim rolini hamda moddiy motivlarning nisbatan past darajada namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi. Bu esa kasb tanlash jarayonining ichki va tashqi motivlar uyg‘unligiga asoslangan kompleks psixologik mexanizm ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sarsenova A., Sadyrova M., Maltseva A. Strategies and motivations of high school students in career choice // QazҰU Xabarshisi. Psixologiya jəne əleumettanu seriyasi. - 2025. - DOI: 10.26577/jpss202593209.
2. Nekhoroshikh N. Professional self-determination of schoolchildren: trends and difficulties in formation // Vestnik Severo-Kavkazskogo federalnogo universiteta. - 2025. - DOI: 10.37493/2307-907X.2025.2.22.
3. Jung Y., Na T., Na S. Determinants of career pathways for specialized high school graduates // Korean Society for the Study of Vocational Education. - 2024. - DOI: 10.37210/jver.2024.43.4.177.
4. Danilova E.E. Motivation for choosing a future profession in modern high school students // European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. - 2021. - Vol. 112. - P. 308-314. - DOI: 10.15405/epsbs.2021.06.04.35.
5. 5. Онипко А. А. Самоопределение старшеклассников при выборе профессии: социологический анализ: автореф. дис. … канд. социол. наук. — Екатеринбург: Урал. федер. ун-т им. первого Президента России Б. Н. Ельцина, 2011. — 18 с.
6. Blazquez C., Cantillo V., García L. What are the determinants of career preferences? The case of high school students in Chile // British Journal of Guidance and Counselling. - 2024. - Vol. 52. - № 5. - P. 970-988. - DOI: 10.1080/03069885.2024.2342787.
7. Maree J.G. Career construction counselling intervention to promote the sense of calling of a disadvantaged black woman // British Journal of Guidance & Counselling. - 2024. - P. 1-24. - DOI: 10.1080/03069885.2024.2407782.
8. Maree J. Innovating Counseling for Self- and Career Construction. - Cham: Springer International Publishing, 2020.

O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI

Usmonova Nargiza Raximjonovna
Farg‘ona davlat universiteti
psixologiya kafedrasi mustaqil izlanuvchisi.
Qo‘qon universitetit katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va rus qizlarini oilaviy hayotga tayyorlashda etnik stereotiplar hamda psixologik munosabatlarning o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda madaniy qadriyatlar, milliy an’analar, ijtimoiy qarashlar va oilaviy tarbiyaning yosh ayollarning nikoh, oilaviy majburiyatlar, gender rollari hamda shaxslararo munosabatlar haqidagi tasavvurlariga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, oilaviy hayotga munosabatni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlar - emotsional tayyorgarlik, muloqot madaniyati, axloqiy qadriyatlar va madaniy identifikatsiya masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Qiyosiy tahlil natijasida o‘zbek va rus qizlarining oilaviy munosabatlarga oid qarashlaridagi umumiy va farqli jihatlar aniqlangan hamda etnik-madaniy muhitning shaxs rivojlanishiga ta’siri yoritilgan. Maqolada ko‘p madaniyatli jamiyat sharoitida sog‘lom oilaviy qadriyatlarni shakllantirishda psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari yoshlarni barqaror va uyg‘un oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan ta’limiy hamda psixologik dasturlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: etnik stereotiplar, psixologik munosabat, oilaviy hayotga tayyorgarlik, o‘zbek qizlari, rus qizlari, oilaviy qadriyatlar, madaniy identifikatsiya, gender rollari, shaxslararo munosabatlar, nikohga munosabat, yoshlar psixologiyasi, etnik madaniyat, oilaviy tarbiya, psixologik tayyorgarlik.

Аннотация. В данной статье научно анализируется роль этнических стереотипов и психологических установок в подготовке узбекских и русских девушек к семейной жизни. В исследовании рассматривается влияние культурных ценностей, национальных традиций, социальных представлений и семейного воспитания на формирование взглядов молодых женщин на брак, семейные обязанности, гендерные роли и межличностные отношения. Особое внимание уделено психологическим механизмам, формирующим отношение к семейной жизни, включая эмоциональную готовность, особенности

коммуникации, нравственные ценности и культурную идентичность. Сравнительный анализ выявляет как сходства, так и различия в семейных установках узбекских и русских девушек, а также подчеркивает влияние этнокультурной среды на развитие личности и будущего семейного поведения. В статье также обосновывается значимость психолого-педагогической поддержки в формировании здоровых семейных ценностей среди молодежи в условиях поликультурного общества. Результаты исследования могут быть использованы при разработке образовательных и психологических программ, направленных на подготовку девушек к стабильным и гармоничным семейным отношениям.

Ключевые слова: этнические стереотипы, психологическая установка, подготовка к семейной жизни, узбекские девушки, русские девушки, семейные ценности, культурная идентичность, гендерные роли, межличностные отношения, отношение к браку, психология молодежи, этническая культура, семейное воспитание, психологическая подготовка.

Abstract. This article examines the role of ethnic stereotypes and psychological attitudes in preparing Uzbek and Russian girls for family life. The study analyzes how cultural values, national traditions, social expectations, and family upbringing influence young women's perceptions of marriage, family responsibilities, gender roles, and interpersonal relationships. Particular attention is paid to psychological mechanisms shaping attitudes toward family life, including emotional readiness, communication patterns, moral values, and cultural identity. A comparative analysis highlights both similarities and differences in the family-related attitudes of Uzbek and Russian girls, emphasizing the influence of the ethnocultural environment on personality development and future family behavior. The article also discusses the importance of psychological and pedagogical support in developing healthy family values among young people in multicultural societies. The findings of the study may contribute to the development of educational and psychological programs aimed at preparing girls for stable and harmonious family relationships.

Keywords: ethnic stereotypes, psychological attitudes, preparation for family life, Uzbek girls, Russian girls, family values, cultural identity, gender roles, interpersonal relationships, attitudes toward marriage, youth psychology, ethnic culture, family education, psychological readiness.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro migratsiya va harakatchanlikning kuchayishi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida nafaqat Rossiyada, balki butun dunyoda ham madaniyatlararo nikohlar soni sezilarli ravishda ortib bormoqda. Bu holat jamiyatning bunday oilalarga bo‘lgan qarashlari va munosabatlarida yangi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, turli madaniyat vakillaridan tashkil topgan oilalarda oila a’zolarining ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlari, shuningdek, boshqa madaniy muhitda yashayotgan turmush o‘rtoqlarning akkulturatsiya jarayonlari ham o‘ziga xos tarzda shakllanmoqda. Nikoh hayotimizning eng muhim jihati bo‘lishi bilan birga, juft tanlash masalasining dolzarbligi sababli jiddiy muammoni ham yuzaga keltiradi. Nikoh va oilaviy mavqe o‘zgarib, jamiyatning o‘zgaruvchan qadriyatlari, qarashlari va g‘oyalarini aks ettirmoqda.

Tadqiqotlarda madaniyatlararo nikohlarning barqarorligi va farovonligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida er-xotinning ijobiy etnik o‘zligi hamda bir-birining madaniyatiga hurmat va ijobiy munosabatda bo‘lishi qayd etiladi. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko‘ra, etnos qat’iy va o‘zgarmas tushuncha emas, balki vaqt o‘tishi va ijtimoiy sharoit ta’sirida mazmuni yangilanib boradigan ijtimoiy konstrukt hisoblanadi. Shaxsning etnik mansubligi ham ko‘pincha millatlararo munosabatlar jarayonida shakllanadi va inson tomonidan subyektiv tarzda anglanadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

T.G. Stefanenko konsepsiyasiga tayangan holda, etnik o‘zlik shaxsning o‘zini muayyan etnik guruh bilan bog‘lashi, o‘z “Men”ini etnik muhit bilan qiyoslash va anglash jarayonida yuzaga keladigan hissiy hamda kognitiv hodisa sifatida talqin etiladi. Olimaning fikricha, agar inson jamiyatdagi vaziyatni beqaror yoki tahdidli deb qabul qilsa, uning ijobiy etnik o‘zligi zaiflashishi va natijada salbiy etnik identifikatsiya shakllanishi mumkin.

Ko‘p millatli ijtimoiy muhitda shaxsning etnik o‘zligini shakllantirish jarayoni turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Ayrim hollarda inson o‘zining tug‘ilib o‘sgan etnik guruhiga mansublikni saqlab qolsa, boshqa vaziyatlarda esa boshqa etnik guruh bilan o‘zini yaqin his etishi kuzatiladi. Shuningdek, ikki xil madaniyat va etnik guruhga birdek daxldorlik hissi bilan tavsiflanuvchi bietnik o‘zlik ham shakllanishi mumkin. Tadqiqotchilar fikricha, ayniqsa boshqa madaniy muhitda

yashash sharoitida insonning etnik o‘zligini anglash jarayoni yanada faollashadi hamda bu holat ko‘pincha ichki ruhiy va ijtimoiy ziddiyatlar bilan birga kechadi.

A.A. Malkovaning qayd etishicha, millatlararo nikohda ayolning etnik o‘ziga xosligi kuchli ijtimoiy va madaniy ta’sir ostida qoladi. Natijada u ma’lum darajada o‘zgarib, turmush o‘rtog‘ining etnik madaniyatiga xos qadriyatlar va xulq-atvor me’yorlarini qabul qilishga majbur bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, olima madaniyatlararo oilaning rivojlanish bosqichlarida shaxsning o‘zligini anglashiga xizmat qiluvchi an’anaviy va zamonaviy omillar o‘zaro uyg‘unlashib, qisman yangilanib borishini ta’kidlaydi.

Bunday jarayonda yangi etnik identifikatsiya unsurlari avvalgi elementlarni to‘liq inkor etmaydi, aksincha ular bilan birgalikda mavjud bo‘lib, yanada murakkab va ko‘p qatlamli o‘zlik tizimini yuzaga keltiradi. Natijada inson bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq etnomadaniy makon bilan bog‘liq holda yashashi mumkin.

Madaniyatlararo juftliklarda akkulturatsiya jarayonining qanday kechishi er-xotinning umumiy hayotdan mamnunligiga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, juftlik a’zolaridan biri tomonidan kamsitilish yoki ijtimoiy chetlatilish holatlarining sezilishi nafaqat uning o‘ziga, balki ikkinchi sherikning ham hayotdan qoniqish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sheriklar o‘rtasidagi hissiy yaqinlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va emotsional bog‘liqlikning kuchayishi ularning oilaviy farovonligi hamda hayotdan mamnunlik hissining ortishiga xizmat qiladi.

Boshqa ilmiy izlanishlarda esa madaniyatlararo nikohdagi xorijiy turmush o‘rtoqlarning yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvi ko‘p jihatdan ular yashayotgan jamiyat madaniyatini qanday qabul qilishi va “madaniy masofa”ni qay darajada his etishiga bog‘liq ekani qayd etiladi. Ijtimoiy kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi sababli xorijiy sherik ko‘pincha o‘z hayotiy maqsadlarini amalga oshirishda mahalliy madaniyat vakili bo‘lgan turmush o‘rtog‘iga ko‘proq suyanadi.

Natijada juftlikdagi munosabatlarda o‘zaro bog‘liqlik kuchayib, ayrim hollarda haddan tashqari qaramlik holati yuzaga kelishi mumkin.

Shuningdek, xorijiy sheriklar oilaviy munosabatlarga faolroq hissa qo‘shishga intilishi, shu bilan birga mahalliy sherigidan ham oilaviy va shaxsiy hayotga nisbatan yuqori darajadagi ishtirok va mas’uliyat kutishi aniqlangan. Bu holat millatlararo adigey-rus oilalari misolida o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham

tasdiqlanib, millatlararo nikohdagi shaxslar monoetnik nikohdagilarga nisbatan ko‘proq ichki nazorat (internallik) hissiga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Ayrim ilmiy qarashlarda millatlararo yaqin munosabatlar turli etnik guruhlar o‘rtasidagi assimilyatsiya jarayonlari yoki madaniy chegaralarning asta-sekin zaiflashuvi belgisi sifatida talqin qilinadi. Shunga qaramay, madaniy tafovutlarning ahamiyatini kamaytirib baholash to‘g‘ri emas.

Chunki asosan G‘arb jamiyatlari misolida shakllangan romantik munosabatlar mexanizmlari, xulq-atvor me’yorlari hamda sheriklik haqidagi tasavvurlar boshqa madaniyat vakillariga har doim ham mos kelmasligi mumkin. Qadriyatlar tizimi, hayotiy tajriba va ijtimoiy kutishlardagi farqlar sababli bunday yondashuvlar ayrim hollarda boshqa millat vakillariga nisbatan stereotip va xurofiy qarashlarning shakllanishiga olib keladi. Natijada nafaqat oilaviy munosabatlarni shakllantirish, balki psixologik maslahat va yordam ko‘rsatish jarayoni ham murakkablashadi.

Madaniyatlararo oilalarni tadqiq etayotgan zamonaviy olimlar hamda amaliyotchi mutaxassislar ushbu masalani tizimli yondashuv asosida, keng ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olgan holda o‘rganish zarurligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, madaniyatlararo oilalarda er-xotinning o‘z etnik guruhi va qabul qiluvchi jamiyat vakillari bilan munosabatlari, shuningdek, shaxsning o‘z madaniyati va turmush o‘rtog‘i madaniyatiga bo‘lgan munosabati, madaniy identifikatsiyasi va o‘zligini anglash darajasi muhim omillar hisoblanadi.


Ilmiy adabiyotlarda etnoslararo omilning oilaviy munosabatlar sifati va er-xotin o‘rtasidagi uyg‘unlikka ta’siri masalasida turlicha, ba’zan esa qarama-qarshi fikrlar uchraydi. Ayrim tadqiqotlar etnik farqlar oilaviy munosabatlarni murakkablashtirishini ko‘rsatsa, boshqalari bunday nikohlarda o‘zaro tushunish va moslashuvning yuqori darajada bo‘lishi mumkinligini qayd etadi. Shu sababli etnoslararo juftliklardagi munosabatlarni tahlil qilishda nafaqat obyektiv omillarni, balki shaxsiy tajriba, qadriyatlar tizimi va psixologik xususiyatlarni ham inobatga olish muhimdir. Bundan tashqari, bunday oilalardagi o‘zaro munosabatlarning mohiyatini chuqurroq anglash uchun turli psixologik nazariya va konsepsiyalardan foydalanish zarur hisoblanadi.

Sigmund Freudning ta’kidlashicha, bolalik kechinmalari oilaning rivojlanishiga va nikohga tayyorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Freyd jinsiy tajribaning ahamiyati va uning asosida yotuvchi psixologik samaralarni alohida qayd etib, shu orqali yoshlarning jinsiy tarbiyasi asosli va muhim ekanligini

ko‘rsatib bergan. Sigmund Freud nazariyasida inson ruhiy hayoti quyi tuzilmalarining shakllanishi va funksional o‘ziga xosligiga katta e’tibor qaratiladi.

Carl Rogers va Thomas Gordonning g‘oyalari hissiy muloqotni nikoh va oilaga tayyorgarlik vositasi sifatida ta’kidlagan. Bu konsepsiyada o‘zaro va jismoniy dunyo o‘rtasidagi aloqaga katta ahamiyat beriladi. Mashhur psixolog Carl Rogersning ta’kidlashicha, muvaffaqiyatli oilaviy munosabatlar ikkita asosiy ehtiyojning qondirilishiga bog‘liq. Birinchidan, bu - boshqa odamlardan olinadigan ma’qullash va mehr-muhabbat shaklida namoyon bo‘ladigan ijobiy munosabat. Ikkinchidan, bu - birinchi ehtiyoj qondirilgani sari rivojlanib boradigan o‘zini namoyon etish ehtiyojidir.

Tadqiqot boshlanishidan oldin gipotezani tekshirish uchun zarur bo‘lgan tanlanma va metodikalar aniqlab olindi. Jinsiy belgisi bo‘yicha 2 ta guruh shakllantirildi. Ularning har biriga 18 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan 20 kishi kiritildi. E’lon qilingan mavzu va tadqiqotning belgilangan vazifalariga muvofiq erkaklar va ayollarning nikohga bo‘lgan munosabatidagi statistik ahamiyatga ega farqlarni aniqlash uchun quyidagi diagnostik metodikalar tanlab olindi.



1-rasm “Turmush qurish uchun har doim ota-ona aralshuvi to‘g‘ri tanlov”

Mazkur diagramma “Turmush qurilishda ota-onaning aralashuvi har doim to‘g‘ri tanlovmi?” degan savol asosida respondentlarning ijtimoiy-psixologik munosabatini aks ettiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari turli millat va jins vakillarining ushbu masalaga bo‘lgan qarashlari o‘rtasida ma’lum farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, o‘zbek va rus

millatiga mansub respondentlar, shuningdek, erkaklar va ayollar orasida ota-onaning turmush qurish jarayoniga aralashuviga nisbatan turlicha munosabat shakllangan.

Diagrammadan ko‘rinishicha, ayrim respondentlar ota-onaning aralashuvini oilaviy qadriyatlar, tajriba va farzand manfaatlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan ijobiy baholagan. Ularning fikricha, ota-onalar hayotiy tajribaga ega bo‘lgani sababli yoshlarning to‘g‘ri tanlov qilishiga yordam bera oladi. Ayniqsa, milliy an’analar kuchli saqlanib qolgan oilalarda ota-onaning fikri muhim omil sifatida qaraladi.

Boshqa respondentlar esa ota-onaning haddan tashqari aralashuvi yoshlarning mustaqil qaror qabul qilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlagan. Ularning fikricha, nikoh ikki insonning shaxsiy tanlovi bo‘lib, bu jarayonda ortiqcha bosim yoki majburiy aralashuv kelajakdagi oilaviy munosabatlarda muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, individual qarashlar va shaxsiy erkinlikka yuqori e’tibor qaratadigan respondentlarda bu pozitsiya kuchliroq namoyon bo‘lgan. Shuningdek, natijalarda jinsiy tafovutlar ham kuzatiladi.

Ayrim hollarda ayollar ota-onaning maslahat va qo‘llab-quvvatlashini muhim deb hisoblagan bo‘lsa, erkak respondentlar orasida mustaqil qaror qabul qilish tarafdorlari ko‘proq uchrashi mumkin. Millatlar kesimida esa o‘zbek respondentlarida an’anaviy oilaviy qadriyatlarga moyillik kuchliroq ekani, rus respondentlarida esa individual tanlov va mustaqillik omili ustunroq namoyon bo‘lishi ehtimoli kuzatiladi.

Umuman olganda, diagramma turmush qurish jarayonida ota-onaning aralashuvi masalasi jamiyatda bir xil qabul qilinmasligini, bu munosabat milliy, madaniy va gender omillari bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari oilaviy munosabatlarda muvozanat, ya’ni ota-onaning maslahat beruvchi rolini saqlagan holda yoshlarning mustaqil tanlov huquqini hurmat qilish muhim ekanini anglatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, turmush qurish jarayonida ota-onaning aralashuvi masalasi jamiyatda yagona va qat’iy fikr bilan qabul qilinmaydi. Tadqiqot natijalari bu masalaga nisbatan munosabatlar turli ijtimoiy, madaniy va demografik omillarga bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Ayrim respondentlar ota-onaning aralashuvini ijobiy baholab, uni hayotiy tajriba va oilaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil sifatida ko‘radi.

Boshqa bir guruh esa bunday aralashuvni yoshlarning mustaqil qaror qabul qilish huquqiga to‘sqinlik qiladigan omil sifatida baholaydi. Shuningdek, jins va millat bo‘yicha ham muayyan farqlar kuzatiladi: an’anaviy qadriyatlar kuchli bo‘lgan muhitda ota-onaning roli muhim deb qaralsa, individual yondashuv ustun bo‘lgan guruhlarda esa shaxsiy tanlov erkinligi birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Umuman olganda, mazkur masalada eng maqbul yondashuv - ota-onaning maslahat va qo‘llab-quvvatlovchi roli saqlangan holda, yoshlarning mustaqil qaror qabul qilish huquqini ham hurmat qilishdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4190-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2019-yil 13-fevral. - URL: http://lex.uz
2. Shavkat Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2019. - 592 b.
3. Shavkat Mirziyoyev Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2019. - 508 b.
4. Avicenna Tibbiyot risolalari. - Toshkent: Fan, 1987. - 78 b.
5. Ayol huquqi va erkinliklari / TDYuI. - Toshkent: Adolat, 2002. - 234 b.
6. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari. - Toshkent: Shams ASA, 2002. - 25 b.
7. Abdusattorova O.A. Oila muhitida o‘smirlarda shakllanadigan identifikatsiyaning gender xususiyatlari: Psixol. fan. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. - Toshkent, 2007. - 22 b.
8. V.M. Karimova Oilaviy hayot psixologiyasi. -Toshkent, 2006. - 137 b.
9. Psixologiya ilmiy jurnali.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Мирзажонова Элеонора Топволдиевна
Ферганский государственный университет,
доцент кафедры «Психология»,
г.Фергана, e.mirzajonova@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы развития эмоционального интеллекта младших школьников в условиях образовательной среды. Проанализированы современные научные подходы к изучению эмоционального интеллекта, раскрыта роль семьи, школы и социально-эмоционального обучения в формировании эмоциональной компетентности детей младшего школьного возраста. Особое внимание уделено психологическим особенностям эмоционального развития младших школьников, педагогическим условиям формирования эмпатии, саморегуляции и коммуникативных навыков. В статье обоснована необходимость внедрения социально-эмоционального обучения в образовательный процесс.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, младший школьный возраст, социально-эмоциональное обучение, эмпатия, эмоциональное развитие, образовательная среда, психологический климат.

Annotatsiya: Maqolada ta’lim muhiti sharoitida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslari ko‘rib chiqiladi. Emotsional intellektni o‘rganishga doir zamonaviy ilmiy yondashuvlar tahlil qilinib, kichik maktab yoshidagi bolalarda emotsional kompetentlikni shakllantirishda oila, maktab va ijtimoiy-emotsional ta’limning o‘rni ochib beriladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning emotsional rivojlanishiga xos psixologik xususiyatlar, empatiya, o‘zini o‘zi boshqarish va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlariga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada ijtimoiy-emotsional ta’limni ta’lim jarayoniga joriy etish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: emotsional intellekt, kichik maktab yoshi, ijtimoiy-emotsional ta’lim, empatiya, emotsional rivojlanish, ta’lim muhiti, psixologik iqlim.

Abstract: This article examines the theoretical foundations for developing emotional intelligence in primary school children within the educational

environment. It analyzes contemporary scholarly approaches to the study of emotional intelligence and explores the role of the family, school, and social-emotional learning in the formation of emotional competence among children of primary school age. Particular attention is paid to the psychological characteristics of emotional development in primary school children, as well as to the pedagogical conditions for fostering empathy, self-regulation, and communication skills. The article substantiates the need to integrate social-emotional learning into the educational process.

Keywords: emotional intelligence, primary school age, social-emotional learning, empathy, emotional development, educational environment, psychological climate.

ВВЕДЕНИЕ

Современная система образования Узбекистана ориентирована не только на формирование академических знаний, но и на развитие личности ребёнка, его эмоциональной устойчивости, коммуникативной культуры и способности к эффективному социальному взаимодействию. 30 апреля 2019 года был принят Указ Президента «Об утверждении концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года». Согласно Концепции, одним из приоритетных направлений развития общего, среднего и внешкольного образования, которые были определены в рамках Концепции является:

- совершенствование методики обучения, поэтапное внедрение принципов индивидуализации учебно-воспитательного процесса.

В этой связи проблема развития эмоционального интеллекта приобретает особую актуальность [1, г.Ташкент, 29.04.2019 г., № УП-5712].

Эмоциональный интеллект рассматривается как совокупность способностей человека понимать собственные эмоции, управлять ими, распознавать эмоциональные состояния других людей и выстраивать конструктивное межличностное взаимодействие. Развитие данных навыков особенно важно в младшем школьном возрасте, поскольку именно в этот период активно формируются основы самосознания, эмоциональной саморегуляции и социальной адаптации.

СТЕПЕНЬ ИЗУЧЕННОСТИ ТЕМЫ И МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Современные исследования показывают, что высокий уровень эмоционального интеллекта способствует успешности учебной деятельности, снижению тревожности, формированию позитивных межличностных отношений и психологическому благополучию ребёнка.

Теоретические основы изучения эмоционального интеллекта. Проблема эмоционального интеллекта занимает важное место в современной психологии. Термин «эмоциональный интеллект» получил широкое распространение благодаря исследованиям зарубежных учёных П.Сэловея (Piter Salovey) и Дж.Майера (Jon Mayer), а также работам Д.Гоулмана (Daniel Goleman) [5]. Исследователи рассматривали эмоциональный интеллект как способность человека осознавать эмоции, понимать их значение и использовать эмоциональную информацию для регуляции поведения.

В отечественной психологии эмоциональные процессы и интеллектуальные чувства исследовались в трудах Л.С. Выготского, С.Л. Рубинштейна, А.Н. Леонтьева, В.В. Давыдова и других учёных. Известный психолог Э.Г.Гозиев рассматривал интеллектуальные чувства как важный компонент познавательной деятельности личности [3].

Согласно позиции С.Л. Рубинштейна, понимание эмоционального состояния другого человека невозможно без собственного эмоционального опыта. Данный подход подчёркивает важность эмпатии и эмоциональной рефлексии в развитии личности ребёнка [6].

Эмоциональный интеллект включает несколько взаимосвязанных компонентов: **Таблица 1**

Компоненты эмоционального интеллекта	**Характеристика**
Самосознание	Осознание собственных эмоций и переживаний
Саморегуляция	Управление эмоциональными реакциями
Эмпатия	Понимание эмоционального состояния других людей
Коммуникативные навыки	Эффективное взаимодействие с окружающими
Мотивация	Внутренняя направленность на достижение целей

Развитие данных компонентов способствует успешной социализации ребёнка и формированию психологической устойчивости.

Психологические особенности эмоционального развития младших школьников. Младший школьный возраст является важным этапом эмоционального развития личности. В этот период происходит постепенное усложнение эмоциональной сферы ребёнка, формируются навыки эмоционального контроля и социального взаимодействия.

Для детей младшего школьного возраста характерны:

- эмоциональная впечатлительность;
- повышенная чувствительность к оценке взрослых;
- зависимость эмоционального состояния от учебной успешности;
- развитие эмпатии и коммуникативных навыков;
- постепенное формирование произвольной регуляции поведения [8].

Эмоциональные переживания младших школьников тесно связаны с учебной деятельностью. Успехи в обучении способствуют формированию положительных эмоций и уверенности в себе, тогда как неудачи могут вызывать тревожность, снижение самооценки и эмоциональное напряжение.

Tadqiqotchi Z.Husniddinov esa, bu tushunchaga quyidagicha ta’rif beradi: “tolerantlik umumiy ma’noda biror narsa, hodisani, o‘zgacha fikr va qarashni, o‘z shaxsiy tushunchalaridan qat’iy nazar, imkon qadar chidam va toqat bilan qabul qilishni anglatadi” [3].

Zamonaviy mahalliy ilm-fanda bag‘rikenglik hodisasi juda faol o‘rganilmoqda. Olimlar etnik va ijtimoiy psixologiyani nazariy va amaliy tadqiqotlarini olib boradilar, ular millatlararo munosabatlar psixologiyasining jihatlari va bu munosabatlarda shaxsning roliga tegishlidir.

Ushbu talqinda bag‘rikenglik boshqalarning huquqlarini tan olish, boshqalarni teng huquqli deb qabul qilish, tushunish va rahm-shafqatni talab qilish,

boshqa xalqlar va madaniyatlar vakillarini qanday bo‘lsa, shunday qabul qilish va ular bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish istagini anglatadi. U o‘zining amaliy ifodasini chidamlilik, o‘zini o‘zi boshqarish, uzoq vaqt davomida salbiy ta’sirlarga dosh bera olish qobiliyatida ifodalanadi.

A.V.Petrovskiy “tolerantlik” tushunchasini adaptiv imkoniyatlarni kamaytirmasdan uzoq vaqt davomida noqulay ta’sirlarga dosh bera olish qobiliyati deb ta’riflagan. Umumiy ma’noda bag‘rikenglik har qanday ishda, ishda qat’iyat, qat’iyat va chidamlilik va chidash qobiliyati sifatida tavsiflanadi [2].

TAHLIL VA NATIJALAR

Psixologiyada “tolerantlik” deganda uning ta’siriga nisbatan sezgirlikning pasayishi, tahlikali vaziyatga milliy javob berish chegarasining oshishi natijasida har qanday noqulay omilga javob yo‘qligi yoki zaiflashishi tushuniladi.

Bag‘rikenglik - munosabatlardagi tinchlik uchun o‘z manfaatlarini buzishga tayyorlik. Kuchli tomonlarning manfaatlari zaiflarning manfaatlariga to‘g‘ri kelmaganligi sababli, manfaatlarning buzilishini har xil yo‘llar bilan tushunish kerak. Tolerantlik - bu shaxsiyatning sifati va ijtimoiy hayot hodisasi madaniyatning eng yuqori, asosiy qadriyatlariga tegishli.

Bizning fikrimizcha bag‘rikenglikning tegishli mezonlarini belgilash maqsadga muvofiqdir: turli xil xalqlar vakillari o‘rtasidagi haqiqiy tenglik (jinsi, irqi, millati, dini yoki boshqa biron bir guruhga mansubligidan qat’i nazar, barcha odamlar uchun ijtimoiy imtiyozlarga teng kirish); jamiyatning barcha a’zolarining boshqa ijtimoiy, madaniy va boshqa guruhlarga nisbatan o‘zaro hurmati, xayrixohligi va bag‘rikengligi; jamiyatning barcha a’zolarining siyosiy hayotida ishtirok etish uchun teng imkoniyatlar; milliy ozchiliklarning qonun bilan kafolatlangan madaniy o‘ziga xosligi va tillarini saqlash va rivojlantirish; ma’lum bir jamiyatda namoyish etilgan barcha madaniyatlar uchun an’analarga rioya qilish uchun haqiqiy imkoniyat; bu boshqa konfessiyalar vakillarining huquqlari va imkoniyatlarini buzmasa, din erkinligi; umumiy muammolarni hal qilishda hamkorlik va birdamlik; millatlararo va millatlararo munosabatlar sohasida va jinslar o‘rtasidagi munosabatlarda salbiy stereotiplarni rad etish [8].

Taqdim etilgan mezonlar zamonaviy tarixda bag‘rikenglikning eng to‘liq timsoli sifatida qabul qilingan liberal fuqarolik jamiyati modeliga mos keladi. Jamiyatning ushbu modelida xolis davlat har bir fuqaroning rivojlanish va o‘z ishonchini ifoda etish huquqini kafolatlovchi asosiy sub’ektga aylanadi.

Bag‘rikenglikning asosiy funksiyalari: insonparvarlik - sub’ektning qadriyat yo‘nalishlari va manfaatlarini shakllantirishga qaratilgan; identifikatsiya qilish - o‘zini har qanday guruhga qo‘shilish, o‘z pozitsiyasini guruhdagilar bilan bog‘lash usuli sifatida ishlaydi, mulohaza yuritish qobiliyatini, o‘zaro aloqalarning axborot maydonini kengaytirish istagini hosil qiladi; ijtimoiy moslashuvchan - bu sub’ektning atrof-muhit bilan aloqasini uyg‘unlashtiradi, sub’ektiv potensialingizni real baholashga, o‘zingizni rivojlantirish uchun asos yaratishga imkon beradi [3].

Bundan tashqari, bag‘rikenglikning quyidagi tarkibiy qismlari topilgan: kognitiv-qiymat - shaxsni shakllantirishga ko‘maklashish vazifasini bajaradi; muhim tizim, qadriyat yo‘nalishlari, dunyoni idrok etish va munosabat sifatini tavsiflaydi; integral - guruhning ham, shaxsning ham ahamiyati va ichki qiymatini tan olishni ta’minlaydi; motivatsion-ehtiyojga asoslangan - ijtimoiy moslashuv maqsadida “bag‘rikenglik” axloqiy mezonini shakllantirishdan iborat.

“Tolerantlik” - bag‘rikenglik hissi va boshqalarning fikrlariga hurmat bilan qarash, bu sizning o‘zingizning fikringizga to‘g‘ri kelmaydi. Bardoshlik har kimga o‘z qarashlarini erkin ifoda etish huquqini va amaliy hayotda odamlarning haqiqiy tengligini beradi, bu inson o‘z e’tiqodidan voz kechmasdan, shu bilan birga boshqa odamlarning fikrlariga yaxshi munosabatda bo‘lishida namoyon bo‘ladi [5].

Demak, tolerantlik juda keng falsafiy tushuncha bo‘lib, o‘zida toqatli bo‘lish, bag‘rikenglikni namoyish qilish, turli g‘oya, qarash va e’tiqodni teng yashovchanligini e’tirof etish va ularga samimiy munosabatda bo‘lish tushuniladi.

Tolerantlik - urf-odatlar, qarashlar, e’tiqodlarga nisbatan sabr-toqatlilik, chidamlilik, boadablik, andishalilikni, turli ijtimoiy va e’tiqodiy tafovutlarga ega insonlar va millatlarning olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi, do‘stona munosabatni va muhitni anglatadi [6].

Bag‘rikenglik har qanday vaziyatda odamga o‘z irodasiga qarshi chiqmaslik, suhbatdoshni kamsitmaslik va shaxsiy erkinlik prinsipini saqlab qolish imkonini beradi. Inson o‘zini qilmishidan xabardor bo‘lganda o‘zini bag‘rikeng deb biladi.

XULOSA

Tolerantlik (bag‘rikenglik) shaxsning individualligi barqarorligini va jamiyatdagi shaxsning uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi. Bag‘rikenglik toqat qilmaslikdan farqli o‘laroq, ko‘p millatli dunyoda madaniyatlararo o‘zaro ta’sir o‘tkazish uchun shart bo‘lib xizmat qiladi. Uning shakllanishi o‘z xalqiga, uning urf-odatlari, qadriyatlari va yutuqlariga hurmat tuyg‘usini tarbiyalash, dunyoning butun etnik va madaniy xilma-xilligini anglash va qabul qilishni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz./ Sh.M. Mirziyoyev.- Toshkent: O‘zbekiston, 2016.- 56 b.

2. Петровский А.В. Психология и время. СПб.: Питер, 2007: 448 (на русском языке).

3. Ҳусниддинов З. Ўзбекистонда диний бағрикенглик (монография). - Тошкент ислом университети, 2006

4. Djurakulova A.X. O‘quvchilarning qobiliyatini shakllantirishda nostandart masalalar ahamiyati//O‘zbekiston Respublikasi Fanlarakademiyasi. – Toshkent. №1. 2011.–Б.139–140.

5. Хажиева М. Ўзбекистонда толерантлик жараèни. –Тошкент: ABU-MATBUOT KONSALT. 2008

6. “Concept for the development of higher education until 2030 of the Republic of Uzbekistan” dated October 8, 2019.

7. Akbaralievich, T. A. (2022). Planning of initial training in educational institutions before convocation. Confrencea, 7(7), 86–88. Retrieved from https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/328

8. A’zamov Inom Salimjonovich. (2022). Improvement Of the Development of Tolerance Skills in Future Teachers (Example of Training a Military Course of Work). Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 4, 147–150. Retrieved from https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/458)

INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING ROLI VA AHAMIYATI

Kenjayev Anvar Sattorovich
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Harbiy ta’lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi, dotsent
kenjayev.3113@gmail.com

Kobilov Nozimjon Mingboyevich
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Harbiy ta’lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi, dotsent
nozimjonqobilov7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda raqamli infratuzilmaning o‘rni, uning sifatli ta’lim jarayonini ta’minlashdagi ahamiyati hamda samaradorlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil etiladi. Raqamli infratuzilmaning texnik ta’minoti, internet tezligi, platformalarning funksionalligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi va talabalarning texnologiyaga kirish imkoniyati interfaol ta’limning muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi yoritiladi. Shuningdek, raqamli muhitda interfaol metodlarni joriy etishning psixologik, tashkiliy va metodik jihatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlari: Interfaol ta’lim, raqamli infratuzilma, ta’lim texnologiyalari, raqamli kompetensiya, pedagogik samaradorlik, innovatsion ta’lim, onlayn ta’lim platformalari.

Аннотация: В статье анализируется роль цифровой инфраструктуры в использовании интерактивных образовательных технологий, ее значимость в обеспечении качественного учебного процесса, а также ключевые факторы, влияющие на эффективность. Освещается влияние таких компонентов, как техническое обеспечение цифровой среды, скорость интернета, функциональность образовательных платформ, цифровая компетентность педагогов и доступ обучающихся к технологиям на успешность интерактивного обучения. Кроме того, изучаются психологические, организационные и методические аспекты внедрения интерактивных методов в цифровой среде.

Ключевые слова: интерактивное обучение, цифровая инфраструктура, образовательные технологии, цифровая компетентность, педагогическая эффективность, инновационное образование, онлайн-платформы.

Annotation: This article analyzes the role of digital infrastructure in the use of interactive learning technologies, its importance in ensuring a high-quality educational process, and the key factors influencing effectiveness. It highlights how technical support, internet speed, platform functionality, teachers’ digital

competence, and students' access to technology directly affect the success of interactive learning. The study also examines the psychological, organizational, and methodological aspects of implementing interactive methods in a digital environment.

Keywords: interactive learning, digital infrastructure, educational technologies, digital competence, pedagogical effectiveness, innovative education, online learning platforms.

KIRISH

Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Raqamli infratuzilma – bu kompyuterlar, planshetlar, smart doskalar, internet tarmog‘i, videokonferensiya platformalari, o‘quv platformalari va dasturiy ta’minotlardan iborat kompleks tizimdir.

Ushbu tizim interfaol ta’lim jarayonida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: o‘quvchilarning darsda faolligini oshirish; real vaqt rejimida muloqot va fikr almashish; multimedia vositalaridan foydalanish orqali mavzuni yanada tushunarli qilish; masofaviy ta’lim sharoitida sifatli aloqa o‘rnatish; o‘quv materiallarini elektron ko‘rinishda saqlash va ulashish imkoniyati. Sifatli raqamli infratuzilmasiz interfaol texnologiyalar to‘laqonli ishlamaydi yoki o‘z funksional samaradorligini yo‘qotadi.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o‘qituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi [1].

Interfaol ta’lim jarayonida mashg‘ulotlar bolalarning o‘zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o‘zaro harakati, ta’siri

ostida bilimlarni o‘zlashtirishni kafoiatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jumladan asosiy mezonlar - norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o‘qish, o‘rganish, seminarlar o‘tkazish, o‘quvchilarni tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalardan iborat. Interfaollik, bu - o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni, bunda o‘quvbiluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda (kompyuter aloqasi) yoki o‘qituvchi-o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida kechadi.

Interfaol ta’lim o‘z xususiyatiga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o‘z ichiga oladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta’lim o‘z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o‘qitish, masofadan o‘qitish, internet tarmoqlari asosida o‘qitish, media-ta’lim metodlaridan iborat [2].

O‘qituvchi interfaol ta’lim, mustaqillik, o‘zini o‘zi boshqarish, samarali muloqot, tengdoshlari bilan ishlash, ularning g‘oyalarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, muqobil g‘oyalarni targ‘ib qilish orqali o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantiradi. Erkin ifoda etish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga harakat qilish va yengish qobiliyati qiyin vaziyatlar bilan bog‘liqdir. Eng muhimi, interfaol ta’limdan foydalangan holda o‘qituvchi ma’lum bir ta’lim maqsadiga erishish uchun talabalarga yo‘naltirilgan birgalikdagi sa’y-harakatlarni tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat qilish va tahlil qilish orqali ob'ektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu munosabat bilan amerikalik psixolog va o‘qituvchi B. Bloom kognitiv va hissiy sohalarda pedagogik maqsadlar taksonomiyasini yaratdi. Bu Blum taksonomiyasi deb ataladi. (Taksonomiya tasniflash va tizimlashtirish nazariyasi mavjudlikning murakkab tuzilgan sohalari). Unga ko‘ra, tafakkurning rivojlanishi bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, umumlashtirish, baholash darajalarida sodir bo‘ladi [3].

Innovatsion texnologiyalarga asoslangan pedagogik va psixologik metodlardan foydalanish jarayonlarida o‘qituvchilar va talabalar faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar bu - jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik va psixologik ta’sir etish usullari ta’limning asosiy mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Odatda interfaol o‘quv faoliyati quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

shaxsiy;

juftlik;
guruh;
jamoaviy ish.

Interfaol metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o‘qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o‘qitsh jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta’lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan tayyorlanganllik darajasini hisobga oladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. O‘qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi [4].

Interfaol usullar ko‘p turli bo‘lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o‘qituvchidan mashg‘ulot oldidan katta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Shu mashg‘ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an’anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko‘rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin.

Interfaol ta’lim usullari O‘zbekistonda qadim zamonlardan beri ta’lim-tarbiya jarayonida muallim bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalar o‘rtasidagi muloqotlarda muhokama, munozara, mo‘zoqara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo‘llab kelingan.

Interfaol ta’lim texnologiyasi — har bir o‘qituvchi barcha talabalar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta’minlaydi. Bunda har bir talaba o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol mashg‘ulotlar o‘ziga xos tashkiliy to‘zilishga ega bo‘lib, uni tashkil qilish va olib borish bo‘yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo‘yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg‘ulot jarayonida shu mashg‘ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko‘zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg‘ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo‘llaniladi.

Interfaol metodlarni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash. Interfaol mashg‘ulot turlari ko‘p bo‘lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko‘zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko‘riladi.

Mashg‘ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to‘g‘ri tanlash, tayyorlash hamda mashg‘ulot o‘tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo‘lishi lozim.

Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi-ularning o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. O‘qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Misol uchun debat metodi ikki talaba o‘rtasidagi bahs hisoblansa, “aqliy hujumda” guruhdagi barcha talabalarning ishtiroki zarur bo‘ladi. Interfaol metodlarning pedagogik texnologik prinsiplariga mos kelishi umumlashtiruvchi mezon hisoblanadi [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish; ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi; ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi; ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi; ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o‘rganilishi; ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo‘ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltirib o‘tamiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin [5].

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi: Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va Interfaol ta’lim strategiyalari: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va boshqalar.

Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

Interfaol metodlardan foydalanish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi. O‘quvchilarning faolligi oshadi – ular bilim olish jarayonida passiv emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi.

Mustaqil fikrlash rivojlanadi – muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini shakllantirish va asoslash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Jamoada ishlash qobiliyati kuchayadi – guruh ishlarida ishtirok etish orqali o‘quvchilar hamkorlik qilishni o‘rganadilar.

Yangi bilimlarni eslab qolish samaradorligi oshadi – interfaol metodlar orqali olinadigan bilimlar uzoq muddatga yodda qoladi.

Texnologik savodxonlik rivojlanadi – zamonaviy ta’lim vositalari bilan ishlash malakalari shakllanadi [6].

XULOSA

Interfaol ta’lim usullaridan tobora ko‘proq foydalanish ushbu soha uchun ijobiy evolyutsiyani anglatadi. Passiv ma’ruzalar bilan taqqoslaganda, o‘zaro ta’sirlar talabalarning faolligini oshiradi, bilimlarni saqlaydi va yuqoridarajadagi fikrlash va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, ular o‘qituvchilarga moslashtirilgan darslarni loyihalash uchun moslashuvchanlik va ijodkorlikni taklif etadi. Amalga oshirish ba’zi logistika qiyinchiliklarini keltirib chiqarsada, ularni yetarli tayyorgarlik va resurslar bilan yengib o‘tish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Argail M., 2003. Baxt psixologiyasi. Sankt-Peterburg: Piter, 272-bet.

2. Bogdanova S.V., Bratchikova V.S. 2011. Magistratura talabalarini tayyorlashda innovatsion o‘qitish usullaridan kompleks foydalanish modelini amalga oshirish. Stavropol AIK axborotnomasi (Iqtisodiyot). 3(3): 59-63.

3. Valeeva M.A. 2009. O‘qitishning interfaol usullaridan foydalanish talabaning ijtimoiy kasbiy tajribasini shakllantirish sharti sifatida. Sibir pedagogika jurnali, 4: 88-98.

4. Jumamuratov R.E. “Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar o‘rni”. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 3.12 (2023): 385-389.

4. Azizxujaeva N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. 2002. 26-28.

5. Rozikov O., Ogaev S., Maxmudov A., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. – 2012. 103-105.

TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM TALABALARINI O‘QUV-BILUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Kobilov Nozimjon Mingboyevich
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Harbiy ta’lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikli o‘qituvchisi, dotsent
nozimjonqobilov7@gmail.com

Kenjayev Anvar Sattorovich
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Harbiy ta’lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi, dotsent
kenjayev.3113@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim texnologiyalari vositasida chaqiriqqacha harbiy ta’lim talabalarining o‘quv-biluv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar va innovatsion ta’lim yondashuvlarining talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, o‘quv jarayonida raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish orqali talabalarning mustaqil fikrlashi, amaliy tayyorgarligi va harbiy-kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Chaqiriqqacha harbiy ta’lim, ta’lim texnologiyalari, o‘quv-biluv kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические возможности развития учебно-познавательных компетенций студентов допризывной военной подготовки средствами образовательных технологий. Освещается роль современных информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов и инновационных образовательных подходов в формировании знаний, умений и навыков обучающихся. Также рассматриваются вопросы развития самостоятельного мышления, практической подготовки и военно-профессиональных компетенций студентов посредством использования цифровых образовательных ресурсов в учебном процессе.

Ключевые слова: допризывная военная подготовка, образовательные технологии, учебно-познавательная компетенция, компетентностный подход, инновационная педагогика, информационно-коммуникационные технологии, интерактивные методы, цифровые образовательные ресурсы.

Annatation: This article analyzes the pedagogical opportunities for developing the educational and cognitive competencies of pre-conscription military

training students through educational technologies. The role of modern information and communication technologies, interactive methods, and innovative educational approaches in the formation of students' knowledge, skills, and abilities is highlighted. The study also examines the development of independent thinking, practical training, and military-professional competencies through the use of digital educational resources in the learning process.

Key words: pre-conscription military training, educational technologies, educational and cognitive competence, competency-based approach, innovative pedagogy, information and communication technologies, interactive methods.

KIRISH

Talabalarning o‘quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish harbiy ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Uning dolzarbligi o‘qish darslari mazmunini yangilash, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish usullarini egallash va o‘quvchilarda faol hayotiy pozitsiyani rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni belgilash bilan chambarchas bog‘liq. Zero, “Harbiy ta’lim fakultetlari o‘quv darsliklari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Barcha predmet darslarini o‘qish faoliyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki matnni tushunib, bir maromda, to‘g‘ri va ifodali o‘qishni o‘rgatish o‘qish orqali DTS bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan bilimlarni hamda o‘quv-biluv ko‘nikma va malakalarni egallashlariga yo‘l ochiladi”.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Oliy ta’limning asosiy vazifasi bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zlarining kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga imkon beradigan kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Bu esa o‘z navbatida, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida nafaqat bilim va ko‘nikmalarni egallash, balki ko‘proq darajada mustaqil ta’lim olish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishning ustuvorligini belgilaydi. Bu shaxsning o‘quv jarayonini tashkil etishga, ya’ni maqsadni qo‘yish, rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiya, o‘quv-bilish faoliyatni mustaqil baholashga tayyorligi va kompetentligini anglatadi.

O‘quv-biluv faoliyati ramziy vositalar bilan amalga oshiriladi va chaqiriqqacha harbiy ta’lim fakulteti talabalarining holati, xulq-atvori va fikrlashini o‘zgartirishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat ehtiyojidan kelib chiqadi.

G.O.Abduraimovaning tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘qitish natijasi nafaqat talabalarning faoliyati bilan balki, o‘qituvchi tashkil etishi talabalarning qiladigan va yo‘naltiradigan o‘quv ishidagi faolligi bilan ham belgilanadi. Shuning uchun ham talabalarning o‘quv-biluv boshqarish o‘qituvchi jarayonini faoliyatining predmeti sifatida namoyon bo‘ladi [1].

S.R.Zohidovaning tadqiqot ishlarida “chaqiriqqacha harbiy ta’lim fakulteti talabalarining shakllanib borishida ijtimoiy-iqtisodsodiy, psixologik-pedagogik, texnologik hamda maxsus bilimlararning ochiqligi, o‘zini-o‘zi rivojlantiruvchi

tizimi bo‘lib, u davr talabi hamda tadqiqotlar natijalari asosida mazmunan o‘zgarib, uzluksiz ravishda mazmunan boyib boradi” deb ta’kidlab o‘tilgan [2].

N.A.Normurodovaning ilmiy tadqiqot ishida “chaqiriqqacha harbiy ta’lim fakulteti talabalarining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini inobatga olgan holda har qanday davrda ham pedagogik ta’lim muammosiga alohida e’tibor qaratilgan. O‘rta asr G‘arb faylasuflari ushbu muammoni jamiyatdagi metodologik muammolar qatorida tahlil qilgan bo‘lsalar, Sharq mutafakkirlari va adiblari badiiy nuqtai nazardan izohlashga harakat qilgan” [3].

D.M.Elmuratova tadqiqot ishlarida chaqiriqqacha harbiy ta’lim fakulteti talabalarida tayanch kompensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish ta’lim jarayonining asosi bo‘lgan, doimiy diqqat va e’tiborni talab qiladigan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan pedagogik muammodir [4].

Keng ma’noda “faoliyat” tushunchasi mazmuni maqsadli o‘zgarish yoki o‘zgartirishdan iborat bo‘lgan atrof olamdagi obyektlarga faol munosabatning o‘ziga xos insoniy shaklini aniqlash uchun qo‘llaniladi, Shaxsning shakllanishi uchun faoliyatning muhimligi L.S.Vigotskiy [5], V.V.Davidov [6], A.N.Leontyev [7] larning tadqiqot ishlarida ochib berilgan.

Faoliyatni mazkur tadqiqot uchun yaxlit jarayon sifatida taqdim etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Faoliyat davomida kechadigan mikdoriy va sifat o‘zgarishlarining har qanday jarayoni uning tuzilmaviy komponentlari va ularning samarali faoliyat ko‘rsatish mexanizmlarining aniq majmuidan tashkil topgan tizimdir.

Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofik tashkil etuvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko‘rinishi sanaladi. Demak faoliyat uchun tabiiy va ijtimoiy maqsadlar asos bo‘lib xizmat qiladi. Shaxs o‘z oldiga qo‘yilgan tabiiy va ijtimoiy maqsad harakteridan kelib chiqqan holda kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarni tashkil etadi. Qanday harakterda bo‘lishidan qat’iy nazar tabiiy va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun harakatlarni izchil uzluksiz va tizimli ravishda olib boradi. Shundagina harakatlar aniq natijalarni kafolatlaydi va u o‘z navbatida, tabiiy yoki ijtimoiy maqsadlarga erishishga olib keladi.

An’anaviy yondashuvga ko‘ra oliy ta’lim o‘qitish talabalarni bo‘lajak kasbiy faoliyatida etuvchi bilim, aks ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish bo‘ladigan ijodiy va egallash uchun zarur qobiliyatni, axloqiy ma’naviy e’tiqod hamda dunyoqarashni, va estetik qarashlarga asoslanuvchi o‘qishni ikki yoqlama ya’ni, o‘qitish va rag‘batlantiruvchi tashkil etishga qaratilgan, o‘quv-biluv faoliyat maqsadli-tashkiliy pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

F.Xaydarov ilmiy izlanishlarida o‘quv-biluv faoliyati empirik va nazariy shart-sharoitlarning ma’lum ravishda ijodiy muloqoti tashkil etilgan jarayonda amalga oshiriladi deb izohlaydi. Shuningdek, o‘qituvchi bilan talabaning bilishga faol ta’sir etib, ularning shu faoliyat o‘quv faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan hatti

harakatlarni tashkil qiladilar. Bu o‘quv faoliyat o‘qituvchi tamonidan tashkil etilib boshqariladi hamda reproduktiv integratsiyalash asosida tizimli ravishda nazorat qilib boriladi. Ma’lumki, o‘quv faoliyati bilan ta’lim, tarbiya ishlari uzviy bog‘liqdir. U yoki bu fanlardan ta’lim berish orqali tarbiyalanadi va o‘quv-biluv faoliyati rivojlanadi [8].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotimizning faoliyati yana bir asosiy tushunchasi - bu o‘quv-biluv. O‘qish-shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga mustahkam hamda uni esda saqlab qolish jarayoni. O‘quv faoliyati doirasida bilish faoliyati mustaqillik darajasiga qarab farqlanadi: reproduktiv va taqlidiy, qidiruv va ijro etuvchi, ijodiy.

Harbiy ta’lim fakultetlari talabalarining intellektual rivojlanishi o‘quv-biluv faoliyat sifat va samaradorligini ikki yo‘nalishini shartli ravishda faol, o‘quv ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘z ichiga olgan shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsion yo‘nalganlik trayektoriyasini imkoniyatlarni shakllantirishga ajratish mumkin.

O‘quv-biluv faoliyati, bir tomondan, harbiy ta’lim fakultetlari talabalarining o‘z-o‘zini tashkil etish va o‘z-o‘zini anglash shakli bo‘lsa, ikkinchi tomondan - o‘qituvchining o‘quv faoliyatini tashkil etish va ularni o‘quvchi bilan ijodiy muloqoti natijadorligi sifatida shakllanishidagi integratsiyalash asosida takomillashtirilganligidir.

Shuningdek, o‘quv-biluv faoliyatni rivojlantirishni operatsiyalari ko‘nikmalarida bilishga qiziqishni rivojlantirish uchun harbiy ta’lim fakultetlari talaba shaxsining shaxsiy-refleksiv va shaxsiy motivatsion harakati o‘quv-biluv faoliyatga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. O‘quv-biluv faoliyatning rivojlanishini tuzilishi, uning xususiyatlarini tashkiliy, qidiruvga yo‘naltirilgan jihatlarga va elementlarga bog‘liqdir.

T.I.Shamova o‘quv-biluv faoliyatining mazmuni va jarayoniga nisbatan namoyon bo‘lgan shaxs sifatida, bilimlarni samarali egallashga va uni egallash usullariga intilishi, o‘quv maqsadlariga erishish uchun ixtiyoriy harakatlarni safarbar qilishda deb hisoblaydi. Harbiy ta’lim fakulteti talabalarining intellektual rivojlanishi o‘quv-biluv faoliyat sifat va samaradorligi, o‘quv-biluv faoliyat bu hissiy idrok, nazariy fikrlash va amaliy faoliyatning birligidir. Bu bilim olishning har bir bosqichidagi faoliyat turlari va ta’lim oluvchilarning ijtimoiy samarali va ijtimoiy foydali ish, ijodiy muloqoti munosabatlarida, shuningdek, o‘quv jarayonida turli amaliy harakatlaridagi izlanish, tajriba, tadqiqot muammolarini hal qilish va boshqalar ta’lim jarayonida bilishning maxsus o‘quv-biluv faoliyatda shakllantirishni kasb etadi [9].

XULOSA

O‘quv-biluv faoliyatning psixologik-pedagogik xususiyatidan individual harakterdagi tuzilishiga qarab faoliyat davomida yo‘naltiriladi. O‘quv-biluv faoliyatni tashkil etish uchun xos bo‘lgan xususiyatlarning namoyon bo‘lish

xususiyatlarini ochib beruvchi faoliyatning zamonaviy tuzilishi ta’limda alohida ahamiyatga ega, chunki insonning keyingi rivoj vojlanishininng yo‘nalishi va dinamikasini aniqlaydigan konseptual psixologik neoplazmalarning shakllanishida mavjud.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduraimova G.O. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘kituvchilarini texnologiya fanini o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish» mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi.

2. Zohidova S.R. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonlarini. Takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari. Diss.avtoreferati. Samarqand – 2019.

3. Normurodova N. A.Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining savod o‘rgatishga kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish. Toshkent, 2020.

4. Элмуратова Д. М. «Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларини инновацион касбий фаолиятга тайёрлаш (табиатшунослик ўқитиш методикаси мисолида). 2019.

5. Выготский Л.С. Собрание сочинений. Мышление и речь. Москва: Педагогика, 1982. — 504 с.

6. Давидов В.В. Проблемы развивающего обучения: Опыт теори и эксперимент психологические исследования. Педагогика, 1986. – 239

7. Леонтьев А. Н. Очерки психологии детей младшего школьного возраста. — М.: Изд-во Академии педагогических наук РСФСР, 1950. — 192 с.

8. Хайдаров Ф.И., Халилова Н.И. «Общая психология»ю Т.: издание центра Науки и технологий, 2010.

9. Шамова Т.И. Активизация учения школьников. Москва: Педагогика, 1982. -209 с.

O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI

Shavkat Bobojonov
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori
bobojonovsh2020@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Uzbekistan hududida qadimdan yashab kelayotgan etnik guruhlar, ularning joylashuvi hamda tolerantlik muhitidagi hamjihat yashash xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqillik yillarida etnoturizmning xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va millatlararo totuvlikni mustahkamlashdagi o‘rni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: etnoturizm, qozoq ovuli, lo‘lilar diasporasi, yahudiy mahallasi, xalqlar do‘stligi, biennale.

Аннотация. В статье анализируются этносы, проживающие на территории Uzbekistan с древнейших времён, особенности их расселения и сосуществования в условиях толерантности. Также раскрывается роль этнотуризма в годы независимости в сближении народов, развитии межкультурного диалога и укреплении межнационального согласия.

Ключевые слова: этнотуризм, казахский аул, цыганская диаспора, еврейский квартал, дружба народов, биеннале.

Abstract. The article analyzes the ethnic groups that have lived in the territory of Uzbekistan since ancient times, the peculiarities of their settlement, and their coexistence in an atmosphere of tolerance. The study also highlights the role of ethnotourism during the years of independence in bringing peoples closer together, promoting intercultural dialogue, and strengthening interethnic harmony.

Keywords: ethnotourism, Kazakh village, Roma diaspora, Jewish neighborhood, friendship of peoples, biennale.

KIRISH

Ma’lumki, etnoturizm sayyohlarning xalqlarning asl hayotiga qiziqishiga asoslangan turizm yo‘nalishidir. Xalqning kelib chiqishi, turmush tarzi, yagona tili, madaniyati, qadriyatlari, iqtisodiyoti, yashash hududi va o‘z-o‘zini anglashi ushbu

tushuncha mazmunini tashkil etadi. Zamonaviy dunyoda etnik turizm tobora keng tarqalmoqda. U yunoncha “etnos” - xalq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, xalq orasiga kirishni ifodalaydi. Bugungi kunda Uzbekistanda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yakdil, ahil bo‘lib yashamoqda. Ularning har biri o‘ziga xos sheva va folklorga ega. Shaharlarda bu xususiyatlar tobora yo‘qolib bormoqda va megapolis aholisi etnik guruhlarning ushbu noyob dunyosiga sho‘ng‘ish, tabiat va milliy ildizlari bilan birlikni his qilish uchun intilmoqda. Ushbu turdagi etnik turizmni ichki turizm va ekskursiya deb ham atashadi.

Mamlakatda tolerantlik, millatlararo totuvlik, o‘zaro ahillik va birdamlikni ta’minlashda etnoturizm muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan millatlarning qadriyatlari, urf-odatlarini saqlab qolish, madaniyatini namoyish etish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ko‘p millatli O‘zbekiston tarixida ham xalqlar birdamligi masalasi asosiy o‘rinda turgan. Masalan, qadimiy shaharlarimizdan Bukhara tolerant shahar sifatida dunyoga tanilgan. Hududda o‘zbek, tojik, turkman, arab, eroniy, yahudiy, hind va lo‘lilar bahamjihat istiqomat qilishgan.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

XVIII asrga kelib eroniylar asosan Bukhara shahrining janubiy qismidagi Jo‘ybor va Xiyobon mavzelerinde o‘rnashgan. Shahar devoridan g‘arbda Qumrabot va janubda Afshor mahallasida ham ayrim guruhlar istiqomat qilishgan. Shuningdek, ular shaharning g‘arbiy qismida ham qisman yashashgan. Buxoro eski shahrining markazida joylashgan To‘pxona va Do‘st Chuxra og‘asi mahallalarida eroniylarning eng avvalgi jamoalari umrгуэaronlik qilishgan.

Buxoroda eroniylar nafaqat eski shaharning Jo‘ybor mavzesida, balki Kogon tumanining Zirabod qishlog‘ida ham istiqomat qilishadi. Mazkur qishloqda turli xalqlar yashab, ular mavrilar, darg‘alilar, loxilar, bobakilar, xarsarilar, timuridlar, g‘undilar, qipchoqlar va balujlardan iborat bo‘lgan. Ko‘rinib turibdiki, ularning barchasi Buxoro amirligi janubidagi shialar istiqomat qiladigan hududlardan ko‘chirib keltirilgan. Ushbu hududlarda eroniylar masjidi - husayniyxonalar faoliyat ko‘rsatgan. Husayniyxona xalq birligi va an’analarini saqlovchi, avloddan avlodga yetkazuvchi muhim maskan hisoblanadi. Shu sababli Iran va Pakistandan Bukharaga tashrif buyuruvchi ziyoratchilar qadimiy husayniyxonalarni ziyorat qilishadi.

Shuningdek, bugun turli millat vakillari o‘z ajdodlarini xotirlash va ziyorat qilish maqsadida Buxoroga tashrif buyuradi. Masalan, Ahli Namadpo‘shni hindistonliklar, Ismoil Somoniyni Tojikiston tojiklari, Mir Arabni yamanliklar,

Eshoni Afg‘oni Murodbaxshni afg‘onlar, Bog‘ir Sog‘irni eronliklar ziyorat qilish uchun Buxoroga intilishadi.

Hozirda Buxoro shahrida turli millat vakillarining qadimiy mahallalari va hovlilari saqlanib qolgan. Masalan, shaharning Labi Hovuz atroflarida, Eshoni Pir ko‘chasida ilgari “Juguton ko‘cha” (yahudiylar ko‘chasi) nomi bilan mashhur bo‘lgan yahudiylar mahallasi saqlanib qolgan. Tarixda Buxorodagi o‘nta mahalla yahudiylarga mansub bo‘lib, shularning uchtasi - Mahallai Nav, Mahallai Ko‘hna va Amirobod asosiylari hisoblangan. Hozirda ikkita yahudiy sinagogasi, bitta ivrit maktabi va bir necha xonadonlar asl holatida сақланиб qolgan.

XIX asrdan boshlab Buxoroning Peshku, G‘ijduvon va Qorako‘l tumanlarida qozoqlar doimiy va vaqtinchalik yashaydigan hududlar paydo bo‘la boshlagan. Jongeldi, Qorabura va Beshbuloq qozoq ovullari yuzaga kelgan. Qozoqlar aday, nayman, arg‘in, qo‘ng‘irot urug‘lari kabi qozoq tili, an’analari va urug‘ munosabatlarini yaxshi saqlab qolishgan. Qozoqlarning ko‘pchiligi XIX asrda Turkiston o‘lkasi va qozoq cho‘llaridan ocharchilik, qatag‘on va iqtisodiy omillar sabab ko‘chib kelgan avlodlar hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jongeldi etnoturizm mahallasi tarkibiga kiruvchi “Jongeldi”, “Xalata”, “Qal’a ota”, “Safron” ovullarida qozoq va turkman millatiga mansub 209 ta oiladan iborat 162 ta xonadon mavjud. Ovullar bir-biridan qariyb 100 km uzoqlikda joylashgan. Jami 765 nafar aholi istiqomat qiladigan qishloqning umumiy maydoni 750 gektar bo‘lib, 1931-yilda tashkil etilgan. Qozoq qavmlari bu manzilga 1930-yillarda ko‘chib kelishgan. Mahalliy aholi asosan chorvachilik, yilqichilik va qisman dehqonchilik bilan shug‘ullanadi.

Buxorodagi yana bir diaspora - lo‘lilar bo‘lib, ular viloyatning turli hududlarida istiqomat qilib kelmoqda. Buxoroda xalqlar do‘stligi namunasini me’moriy inshootlar, tarixiy obidalar, saroylar va aholi turarjoylari qurilishida ham kuzatish mumkin. Masalan, Buxoro amirlarining Kogondagi tashqi saroyida Sharq va G‘arb me’morchilik san’ati uyg‘unlashgan. Inshoot dekoratsiyasida klassitsizm, mavritan, gotika, barokko va ampir uslublaridan unumli foydalanilgan.

Bugun Bukharaga tashrif buyurayotgan sayyohlar nafaqat o‘zbek xalqi tarixi, moddiy va ma’naviy madaniyati bilan, balki bu yerda yashagan boshqa xalqlarning qadriyatlari va an’analari bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Masalan, Buxorodagi 67 ta karvonsaroydan birining “Hindu” deb nomlanishi, Mir Arab madrasasining tarixi yamanlik shayx Arab Yamaniy nomi bilan bog‘liqligi hamda

Chor Minor madrasasining turkman savdogari Xalifa Niyozqul tomonidan qurilgani buning yorqin misolidir.

O‘zbekistonda etnoturizmni rivojlantirish maqsadida qator xalqaro tadbirlar o‘tkazilmoqda. Jumladan, Shahrisabzda maqom festivali, Xorazmda lazgi festivali, Qo‘qonda hunarmandchilik festivali, Buxoroda zardo‘zlik va zargarlik festivallari hamda Boysunda baxshichilik festivali tashkil etilmoqda. Shuningdek, Bukharada 2025-yil 5-sentyabrdan 20-noyabrga qadar xalqaro zamonaviy san’at biennalesi o‘tkazilmoqda. Mazkur biennale ikki yilda bir marotaba an’anaviy tarzda tashkil etiladi. Ushbu nufuzli tadbir turli millat hunarmandlari, rassomlari, me’morlari, oshpazlari va san’at ustalarini bir yerga jamlashi bilan ahamiyatlidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Uzbekistan dunyoga birodarlik, tinchlik va xalqlar do‘stligi mamlakati sifatida mashhurdir. Jumladan, Bukhara ham qadimdan boqiy shahar, bag‘rikeng shahar, ochiq shahar, sharofatli shahar, “Madinat at-tujjor” - savdogarlar shahri hamda sayohatlar chorrahasi nomlari bilan tanilgan. Bugungi kunda etnoturizmni rivojlantirish orqali xalq diplomatiyasini kuchaytirish, qardosh xalqlar bilan yaqin qo‘shnichilik aloqalarini mustahkamlash, uzoq qo‘shnilar bilan pragmatik siyosat yuritish va faol diplomatiyani amalga oshirishda muhim natijalarga erishilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNESCO. Cultural Tourism and Sustainable Development. - Paris: UNESCO Publishing, 2019. - 214 p.
2. Smith V.L. Hosts and Guests: The Anthropology of Tourism. 2nd edition. - Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1989. - 342 p.
3. Richards G. Cultural Tourism: Global and Local Perspectives. - New York: Routledge, 2007. - 256 p.
4. Ashworth G.J., Tunbridge J.E. The Tourist-Historic City. - London: Belhaven Press, 1990. - 304 p.
5. Rajabov Q. Buxoro tarixi va etnomadaniy jarayonlar. - Toshkent: Fan, 2018. - 286 b.
6. Ahmedov B. O‘zbekiston xalqlari tarixi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2015. - 352 b.
7. UNESCO. World Heritage List: Historic Centre of Bukhara. - Paris, 2021.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5611-son Farmoni. - Toshkent, 2019.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda Buxoro xalqaro zamonaviy san’at biennalesini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. - Toshkent, 2025.
10. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - 176 b.

BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVIY MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA)

Iroda Kalonova
mustaqil tadqiqotchi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro eroniylarining oilaviy va jamoaviy marosimlari tizimi, ularning mahalliy ijro xususiyatlari hamda yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda inson hayotining muhim bosqichlari bo‘lgan farzand tug‘ilishi, ism qo‘yish va bolalik davri bilan bog‘liq urf-odatlar, shuningdek, homilador va ko‘zi yorigan ayollar uchun tayyorlanadigan an’anaviy parhez taomlar - atala turlari va ularning shifobaxsh xususiyatlari batafsil yoritilgan. Maqolada Buxoro eroniylari madaniyatiga singib ketgan saidlar xonadonidagi ism qo‘yish an’analari, ramziy ismlar hamda bola soch olish marosimiga oid dala materiallari tahlil etilib, ushbu marosimlarning jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va ma’naviy merosni saqlashdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro eroniylari, ism qo‘yish an’anasi, qovurma atala, Ashuro oyi, husayniya, marosim.

Аннотация. В данной статье с историко-этнографической точки зрения анализируется система семейных и общинных обрядов Bukhara Iranians, особенности их локального исполнения, а также их роль в воспитании молодого поколения. В исследовании подробно освещаются обычаи, связанные с важнейшими этапами человеческой жизни - рождением ребёнка, наречением имени и периодом детства, а также традиционные диетические блюда, приготовляемые для беременных женщин и рожениц (виды аталы и их целебные свойства). На основе полевых материалов в статье анализируются традиции наречения имён в семьях саидов, символические имена и обряд первой стрижки волос ребёнка, глубоко укоренившиеся в культуре бухарских иранцев. Также раскрывается значение данных обрядов в укреплении социальной солидарности и сохранении духовного наследия общества.

Ключевые слова: бухарские иранцы, традиция наречения имени, ковурма атала, месяц Ашура, хусайния, обряд.

Abstract. This article provides a historical and ethnographic analysis of the system of family and community rituals among the Bukhara Iranians, the

characteristics of their local performance, and their role in the upbringing of the younger generation. The study examines in detail the customs associated with important stages of human life, including childbirth, naming ceremonies, and childhood traditions, as well as traditional dietary dishes prepared for pregnant women and new mothers, such as various types of atala and their medicinal properties. Based on field materials, the article analyzes naming traditions in Sayyid families, symbolic names, and the child's first haircut ritual, all of which are deeply rooted in the culture of the Bukhara Iranians. Furthermore, the article highlights the significance of these rituals in strengthening social solidarity and preserving spiritual heritage within society.

Keywords: Bukhara Iranians, naming tradition, kovurma atala, month of Ashura, husayniyya, ritual.

KIRISH

Marosim umum tomonidan qabul qilingan, ramziy xarakterga ega bo‘lgan hayotiy tadbirdir. Boshqacha qilib aytganda, marosimlar urf-odatlarning barqarorlashgan shaklidir. Urf-odat va marosimlar milliy tarbiyaning qudratli quroli, xalqni yagona ma’naviy jipslikka birlashtiruvchi omil hisoblanadi. Marosimlar orqali tarixiy-etnografik yo‘nalishda muayyan bir millatning ma’naviy dunyosi namoyon bo‘ladi.

Oilaviy marosimlar esa inson hayotining muhim bosqichlarini - tug‘ilish, voyaga yetish, nikoh va o‘limni qamrab olib, shaxsning jamiyatdagi mavqeini belgilaydi hamda oila orqali milliy va ma’naviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Jamoaviy marosimlar esa butun jamoa yoki mahalla ishtirokida o‘tkazilib, ijtimoiy birdamlik, hamjihatlik va hamkorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ular jamiyatning ma’naviy birligi va madaniy merosini saqlashda muhim ijtimoiy institut vazifasini bajaradi.

Buxoro eroniylarining boy madaniy an’analari ichida oilaviy marosimlar tizimi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u yosh avlodni tarbiyalashda, ularga ma’naviy qadriyatlarni singdirishda muhim o‘rin tutadi. Bu tizim turli bosqichlardagi hayotiy voqealarni qamrab oladi.

Hayotiy bosqich	Marosim nomi	Qisqacha izoh
1. Yangi hayot boshlanishi	Chaqaloq dunyoga kelishi Ism qo‘yish	Yangidan tug‘ilgan bolaga bag‘ishlangan marosimlar. Ota-ona va

	Chilla davri marosimlari	qarindoshlar uchun shodlik va duo bayrami.
2. Bolalik davri	Beshik to‘y Sunnat to‘yi	Bolaning o‘sishi, jismoniy va ruhiy rivojlanishi bilan bog‘liq marosimlar.
3.O‘smirlik va balog‘at yoshi	Muchal yosh	Har 12 yilda bir keladigan “muchal” yili munosabati bilan nishonlanadigan bayramlar.
4. Yoshlik va oila qurish	Qudachilik Sovchilik Nikoh to‘y Kelin salom	Yoshlarning mustaqil hayotga qadam qo‘yishi va yangi oila qurishi bilan bog‘liq marosimlar.
5. Oilaviy hayot va xotirlash	Bolali bo‘lish munosabati bilan marosimlar Xotira va duo marosimlari	Oila barqarorligini ta’minlovchi va avlodlar xotirasini saqlovchi marosiml

Farzand tug‘ilishi Buxoro eroniylarida ham o‘zbeklardagi kabi juda katta quvonch va muhim voqea sifatida qabul qilinadi. Homilador ayolni tug‘ruqqa tayyorlashga oid maxsus marosimlar va irimlar mavjud bo‘lib, ular kelinning salomatligi hamda bolaning sog‘lig‘ini ta’minlashga qaratilgan. Kelinni asrash va uni qo‘llab-quvvatlash oila a’zolari va jamoa ayollari tomonidan amalga oshiriladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Homiladorlikning oxirgi davrida ayolning qorni kattalashgan sari tajribali ayollar - odatda yoshi katta onabibilar - qorinini yog‘laydilar. Bu marosimda ular sterillangan paxta yog‘i bilan kelinning qornini yog‘lab, ko‘tarib bog‘laydilar.

Xonadonda homilador ayol borligi haqida xabardor bo‘lgan yaqin qo‘ni-qo‘shnilar, xola va ammalar “oshi bibiyon”da tayyorlangan taomdan o‘rik donalari va sumalakdagi yong‘oqlarni olib kelib topshirishadi. Bundagi maqsad shundan iboratki, tug‘ruq boshlangandan so‘ng kelin ushbu yong‘oqlarni iste’mol qilsa, tug‘ruq og‘riqlarini yengil kechirishi mumkin, deb ishonilgan.

Oy kuni yaqinlashganda kelinni tug‘ruqqa tayyorlash boshlanadi. Qaynona kelinining oy kuni yaqinlashganini bilib, asl sariyog‘da unni qovurib, atala taomini yarim tayyor holga keltirib qo‘yadi. Bu taom sut chaqirishi, to‘yimliligi hamda go‘dakning qornini dam qilmasligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Vohada ko‘zi yorigan ayollarga dastlab shirin choy ichirilib, keyin qovurilgan undan tayyorlangan suyuq atala ichirilgan. Bu taomni tayyorlashda quyruq yog‘i, sariyog‘, zig‘ir yog‘i, oq yog‘ va ziravorlardan foydalanilganligi tufayli taom tez hazm bo‘luvchi va quvvatli bo‘lgan. Shuning uchun xalq orasida uni chordori yoki haliloba deb atashgan.

Buxoroda qovurma atala ko‘zi yorigan ayollarning parhez taomi hisoblangan. Etnolog M. Qurbonovaning ta’kidlashicha, bu xildagi taom Navoiy tumani qishloqlarida “yarash atala”, voha tojiklarida esa “atolai zanizoida” deb atalgan. Yarash atalaga tuxum, bodyon, mum (saqich), javz solib pishirilgan. Bo‘shalgan ayol atalasi chaqaloq tug‘ilganidan darak berganligi uchun ham vohada “atala tuqqanning oshi” singari ibora tarqalgan. Sipirma yoki “supurma” atala bug‘doy kepagidan tayyorlangan. Buning uchun kepak uch marta qaynatilib, shirasi dokadan sizib olingan, issiqligida biroz o‘choq devori loyi yoxud kuli yoki merosiy qozon qorasi hamda yog‘siz qatiq qo‘shib, qo‘rquvdan yotib qolgan bemorlarga ichirilgan.

Farzand dunyoga kelgach, ota-ona zimmasidagi majburiyatlardan biri ma’noli va go‘zal ism qo‘yishdir. Ism qo‘yish an’anasiga ko‘ra, yangi tug‘ilgan chaqaloqqa nom qo‘yish va munosib ism tanlash qadimgi davrlardan ota-ona hamda qarindosh-urug‘larning erkin huquqi bo‘lgan. Har bir xalq ism tanlashda o‘z ona tilining so‘z boyligi va imkoniyatlariga tayangan.

Uzoq yillar farzand ko‘rmayotgan oila a’zolari “Ashuro oyi”da husayniya xonalarida imomlar haqqiga duolar qilib, farzand tilab, niyat qilib sham yoqishadi. O‘g‘il farzand tilaganlar Hazrat Ali, Imom Hasan, Imom Husayn, Abul Fazl Abbos, Ali Asg‘ar, Ali Akbar kabi, qiz farzand istaganlar esa Fotimayi Zahro, Zaynab, Ruqiya kabi “Ahli bayt” sohib va sohibalari xotirasini eslab sham yoqishadi.

Shundan so‘ng dunyoga kelmagan bolaga “ramziy ism” qo‘yiladi. Sham egalari “o‘g‘il ko‘rsam Ali Akbar, qiz ko‘rsam ismini Ruqiya qo‘yaman”, deb niyat qilishadi. Bu tilaklari amalga oshishiga ular chin dildan ishonishadi. Farzand dunyoga kelgach esa, ular niyat qilgan “ramziy ismlar” qo‘yiladi. Orzusiga yetgan farzandtalablar imkoniyatlari darajasida husayniya xonalariga is, sombo‘sa, Hazrati Ali Abbos kulchasi, halvalar, turli xil shirinliklar va yeguliklar olib kelib tarqatishadi.

Buxoro eroniylarida tug‘ilgan chaqaloqning sochi bir yoshga yetmaguncha olinmaydi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad qanchalik soch olinmay, uzun bo‘lsa bolaning umri ham uzun bo‘ladi, singari tushuncha va tasavvurlarga ishonilgan. Chaqaloq yoshidan o‘tgach, yoshi ulug‘ bobo-bibilar, ya’ni go‘dakni ismini qo‘ygan kishi, sochiga “qaychi urib berishadi”[2].

Muhammad alayhisallomning qizlari Fotima va Ali ibn Abu Tolibdan tarqalgan avlod “saidlar” deb ataladi[3]. Saidlar, kelib chiqishi fors tojik bo‘lmasalarda, ular allaqachon Buxoro eroniylari bilan qorishib ketishgan. Buxoro eroniylarni ismlariga e’tibor qaratganda ularning saidlar oilasi vakillaridan ekanliklari ham ma’lum bo‘ladi. Saidlarning xonadonida o‘g‘il farzand tug‘ilsa “said”, qiz farzand tug‘ilsa isimiga “begim” qo‘shib aytiladi. Said Huseyn, Said Murtazo, Said Komil, Said Ja’far, Munirabegim, Muharrambegim, Hamidabegim, Ruqiyabegim, Zaxrobegim deb murojaat qilinadi.

Hozirgi kunda ayol tomondan, saidzodalarga borib taqaladigan oilada o‘g‘il farzand dunyoga kelsa “mirzo”, qiz farzandga “sulton” nisbalari ismlariga qo‘shib aytilishi an’anasiga e’tibor berishadi. Masalan, Mirkamol, Bobur mirzo, Sattor mirzo, Muslima sulton, Sakina sulton, Saida sulton[4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro eroniylari azaldan bolaning sog‘lom o‘sishi, uzoq yashashi hamda kelgusida baxtli bo‘lishini unga qo‘yiladigan ism bilan bog‘lashadi. Xalqimizda farzandga muvaffaqiyatli va to‘g‘ri tanlangan ism, berilgan nom uning taqdirini o‘zida mujassam qiladi, “kishi o‘z ismiga o‘xshaydi”, deb ishonishadi. Xalqimiz orasida “ism - insonning ziynati”, “go‘zal ism - yarim rizq”, “ismi jismiga monand” singari naqllar bekorga yaratilmagan. Hadisi shariflarda ota-onaning farzandi oldidagi uch muhim burchidan biri - chiroyli ism tanlash ekani alohida ta’kidlanadi. Shuning uchun ham kishi farzandi uchun to‘g‘ri va ma’noli ism tanlashi o‘ta muhim, e’tibor bilan yondashilishi shart bo‘lgan masala sifatida qaraladi.

XULOSA

Marosim va urf-odatlar har bir xalqning ma’naviy dunyosini, tarixiy-etnografik qiyofasini namoyon etuvchi hamda jamiyatda ijtimoiy birdamlikni ta’minlovchi muhim institut hisoblanadi. Buxoro eroniylarining madaniy merosida ham inson hayotining turli bosqichlari - tug‘ilish, bolalik, balog‘at, oila qurish va xotirlash bilan bog‘liq oilaviy marosimlar tizimi o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, yosh avlodni ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda yetakchi o‘rin tutadi.

[2] Дала ёзувлари. Бухоро шаҳри, Жўйбор маҳалласи. 2016 йил, сентябрь.
[3] Islom ensiklopediyasi. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B.27.
[4] Дала ёзувлари. Бухоро шаҳри. 2023 йил, ноябрь.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldosheva S. Xalq urf-odatlari va an’analari. - Toshkent: Ijod dunyosi, 2003. - B.9.
2. Jumaev A., Qurbonova M. Buxoro etnografisidan lavhalar. - Buxoro, 2006. - B.8.
3. Qurbonova M.B. Buxoro vohasi o‘zbek va tojiklarining an’anaviy taomlari: tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent, 1994.
4. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. - B.176.
5. Dala yozuvlari. Buxoro shahri, Jo‘ybor mahallasi. 2016 yil, sentyabr.
6. Islom ensiklopediyasi. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. - B.27.
7. Dala yozuvlari. Buxoro shahri. 2023 yil, noyabr.

ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI

Rasulov Zubaydullo Izomovich
Buxoro davlat universiteti professori, DSc
O‘zbekiston
ORCID ID 0000-0003-0554-1319
email: z.i.rasulov@buxdu.uz; zubaydullorasulov@gmail.com

Annotatsiya: Inson faoliyatining uning qiziqishlari va ehtiyojlariga qay darajada mos kelishiga nisbatan yuzaga keladigan emotsional jarayonlar ijobiy yoki salbiy tarzda baholanishi mumkin. Bunday munosabatlarning asosida emotsiya yotadi. Mazkur maqolada ellipsisli gaplar stilistik holatning verbalizatsiyasi sifatida tahlil qilinadi. Bir ijtimoiy guruhga mansub shaxslarning emotsiyalari o‘zaro mushtarak xususiyatlarga ega bo‘lib, til birliklari orqali namoyon bo‘ladi. Insonning bilish faoliyati mahsuli hisoblangan emotsiya nutq tuzilmalarining mazmunida muhim o‘rin egallaydi. Bunday tuzilmalar emotsional baholash darajasiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Emotsionallik nutq tuzilmasining xususiy ma’nosi sifatida shakllansa-da, ayrim holatlarda u boshqa ma’no fragmentlaridan ustun keladi va natijada muayyan nutq tuzilmasining asosiy xususiyatiga aylanadi. Xususan, ellipsisli gaplarda emotsionallikning asosiy semantik fragment sifatida namoyon bo‘lishi ko‘p kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: emotsiya, ellipsisli gaplar, insonning bilish faoliyati, olam manzarasi, til faoliyati, kognitiv asos.

Аннотация: Эмоциональные процессы, связанные с тем, насколько деятельность человека соответствует его интересам и потребностям, могут оцениваться как положительно, так и отрицательно. В основе подобных отношений лежит эмоция. В статье эллиптические предложения рассматриваются как средство вербализации стилистического состояния. Эмоции лиц, принадлежащих к одной социальной группе, обладают общими чертами и реализуются посредством языковых единиц. Эмоция, являющаяся результатом познавательной деятельности человека, занимает важное место в содержании речевых структур. Подобные структуры различаются в зависимости от уровня эмоциональной оценки. Несмотря на то, что эмоциональность формируется как частное значение речевой структуры, в определённых условиях она начинает преобладать над другими смысловыми

компонентами, вследствие чего становится основным свойством конкретной речевой структуры. В частности, в эллиптических предложениях эмоциональность нередко выступает главным семантическим компонентом.

Ключевые слова: эмоция, эллиптические предложения, познавательная деятельность человека, картина мира, языковая деятельность, когнитивная основа.

Abstract: Emotional processes related to the extent to which a person's activity corresponds to their interests and needs may be evaluated both positively and negatively. Emotion forms the basis of such relationships. This article examines elliptical sentences as a means of verbalizing a stylistic state. The emotions of individuals belonging to the same social group tend to share common features and are expressed through linguistic units. Emotion, as a result of human cognitive activity, occupies an important place in the content of speech structures. Such structures differ depending on the level of emotional evaluation. Although emotionality is formed as a specific meaning within a speech structure, under certain conditions it prevails over other semantic components, thereby becoming the dominant feature of a particular speech structure. In particular, emotionality is often observed as the main semantic component in elliptical sentences.

Keywords: emotion, elliptical sentences, human cognitive activity, worldview, language activity, cognitive basis.

KIRISH

Ravshanki, voqelikni idrok etayotgan shaxs ma'lum darajada atrofdagi narsa-hodisalarga munosabat bildiradi. Mazkur munosabat sub'ektiv, xususiy xarakterga ega bo'lib, emotsiya, his-hayajon zamirida voqelanadi.

Ma'lumki, his-hayajon kishi ongiga va uning nutqiy hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadigan hodisadir. O'zaro muloqotga kirishayotgan shaxslar buni his-hayajonsiz bajarishlari qiyin. Nutqiy muloqotda samaraga erishish, xursandchilik va xafachilik kabi holatlarni izhor qilish emotsiyasiz kechmaydi. Shu bois tilshunoslar emotsiyani muloqot mazmuni markaziga joylashtirish harakatidadirlar.

His-hayajonli holatda beriladigan baho umumiy tajribaga asoslanadi va shu tufayli ma'lum bir guruhdagi shaxslar uchun qiymatga ega. Inson faoliyati uning qiziqishi, ehtiyojiga qay darajaga mos kelishiga nisbatan emotsiya jarayonlari ijobiy va salbiy baholanishi mumkin. Ushbu turdagi munosabatlar zamirida hissiyot tug'iladi. Hissiyot bitta ijtimoiy guruhga oid shaxslarda mos kelib, umumiy

xususiyatlarga ega bo‘ladi hamda lisoniy birliklar vositasida voqelanadi. Insonning bilish faoliyati natijasi bo‘lgan emotsiya nutqiy tuzilmalarning mazmunidan joy oladi. Bunday tuzilmalar emotsional baho darajasiga qarab bir-biridan farqlanadi. Emotsionallik aslida nutqiy tuzilmaning xususiy ma’nosi sifatida shakllansa-da, ma’lum sharoitlarda boshqa ma’no bo‘laklaridan ustunlik qiladi va oqibatda u yoki bu nutqiy tuzilmada emotsionallik asosiy xususiyatga aylanadi. Shu jumladan, elliptik gaplarda ham emotsionallik asosiy ma’no bo‘lagi bo‘lishi tez-tez kuzatiladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

V.I.Shaxovskiyning ta’rificha, emotsiya tilning kognitiv asosida turadi va shunga binoan lisoniy faoliyat ratsional, oqilona bo‘lish bilan bir qatorda emotsionallikka moyil. Zotan, ratsionallik, emotsionallik, obrazlilik va bahoni konsept tarkibida bir-biridan ajratish qiyin va bularning barchasi yagona konseptual maydondan o‘rin olib kommunikativ qiymatga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, his-hayajon inson faoliyatida yetakchi o‘rinda turadi, uni u yoki bu turdagi harakatga undaydi. Demak, inson va uning his-tuyg’ulari “ob’ektiv borliqning alohida qismi, ya’ni dunyo manzarasini aks ettiradi, boshqa tomondan ular olamning lisoniy manzarasini shakllanishiga ishtirok etadi. Bunda emotsiya voqelikni tasvirlashning muhim shakli sifatida namoyon bo‘ladi”.

Sintaktik tuzilmalar paralelligi hodisasiga asoslangan takror axborotning katta qismini ifodalovchi bo‘laklar takrorlanishini taqozo etadi. Ellipsis hodisasi faollashuvida, albatta, o‘zaro munosabatga kirishayotgan tuzilmalarning miqdor jihatidan bir xil bo‘lishini talab qilmaydigan paralellizm yuzaga keladi. Masalan:

- “Up - John brought me along”
- “Up - John - and - at - ‘em?” (R.Aldington. Death of a Hero).

Sintaktik takror lug’atlar bir xil bo‘lishini talab qilmaydi:

“Why not? You can do some thinking by yourself. Work out some of your cases by the edge of waves” (C.Gordon. Let the Day Perish).

Nima qilardik? Gul teramiz. Qirlarga chiqamiz. Irmoqlardan kechib o‘tamiz... . (SH.Xolmirzaev. O‘n sakkizga kirmagan kim bor).

TAHLIL VA NATIJALAR

Elliptik tuzilmalarda takror yuzaga kelishining ko‘rib chiqilgan holatlari stilistik ifoda usullariga aylanadi. Ularning har biri asarning umumiy g’oyasini voqelantirishga xizmat qiluvchi vosita vazifasini o‘tash qobiliyatiga ega. Elliptik gaplarning stilistik maqomi ularning dialogik va monologik nutq tarkibida emotsional mazmunni ifodalashida namoyon bo‘ladi. To‘plangan misollar tahlili

elliptik tuzilmalar quyidagi emotsional holatlar ifodasi uchun xizmat qilishini ko‘rsatadi:

1. Suhbatdoshning so‘zlaridan g’azabi kelganligini ifodalash uchun:
- “You still love him.”
- “No such thing. The idea. Love a trator.” (W.S.Maugham. Cakes and Ale).
2. So‘zlovchining tushkun holatini ifodalash uchun: “They kill him. My baby son.” (R.Aldington. Death of a Hero).
3. So‘zlovchining qo‘rquvga tushganini ifodalash uchun:
- “I want you to see Wegler.”
- “See him?” (R.Aldington. Death of a Hero).
4. So‘zlovchining hayratini ifodalash uchun:
- “Elliot Templation speaking.”
- “Elliot? I thought you were in Paris.” (S.Maugham. The Razor’s Edge).
5. Kinoyali munosabat bildirish uchun:
- “I guess, I wasn’t listening.”
- “I guess, you weren’t.” (M.Wilson. The Lovers).
6. Norozilik bildirish uchun:
- “You can’t have a dry Martini in the middle of the meal.”
- “Can’t I? You wait and see.” (S.Maugham. Christmas Holiday).
7. Nafratli hissiyotni ifodalash uchun:
- “Have a baby? Of course, not.” (R.Aldington. Death of a Hero).
8. Oldingi voqea haqida o‘ylanib qolishni ifodalash uchun:
- “The Simple Lifers? Oh, yes, I remember.” (R.Aldington. Death of a Hero).
9. Nutqiy harakatning emotsional bo‘yog’ini kuchaytirish uchun:
- “They were ladies. Ladies.” (S.Maugham. Cakes and Ale).
10. Oldingi replikadagi holatning xususiyatlarini ta’kidlash uchun: “To be alone, icily alone.” (R.Aldington. Death of a Hero).
11. Nutqiy harakatning befarqligini va rasmiy ruh olishini ifodalash uchun**:**
- “Do my best,” said Loder with a laugh (S.Maugham. Christmas Holiday).

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, elliptik gaplar nafaqat sintaktik qisqarish hodisasi sifatida, balki emotsional-ekspressiv mazmunni ifodalovchi muhim stilistik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ular dialogik va monologik nutqda his-hayajon, g’azab, qo‘rquv, hayrat, kinoya, norozilik, nafrat va befarqlik kabi turli emotsional holatlarni ifodalash imkonini beradi.

Elliptik tuzilmalar nutqning ta’sirchanligini oshirib, kommunikativ maqsadning samarali amalga oshishiga xizmat qiladi. Shu bois bunday gaplarni lingvistik, pragmatik va kognitiv jihatdan chuqur o‘rganish, ularning emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini aniqlash zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rasulov Z.I. The Problem of Language Economy from the Perspective of Language Evolution // Journal of Critical Reviews. - 2020. - Vol. 7, Issue 17. - P. 104-107. - ISSN 2394-5125. - URL: http://www.jcreview.com/index.php
2. Rasulov Z.I. Information Forming Tools (Factors) in the Structure of Discourse // VI. Uluslararası Türklerin Dünyası Sosyal Bilimler Sempozyumu. - Komrat-Gagauz Yeri (Moldova), 13-15 Mayıs 2022. - Ankara, 2022. - P. 877-893. - ISBN 978-605-73314-1-0. - URL: http://www.weltdertuerken.org/assets/images/sempozyum/62fd3dd53cc84603.pdf
3. Rasulov Z.I. Implicit Expression of Information Components in the Elliptical Constructions // International Journal on Integrated Education. - 2022. - Vol. 5, No. 9. - P. 53-58. - URL: https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/3466
4. Wierzbicka A. Emotions across Languages and Cultures: Diversity and Universals. - Cambridge: Cambridge University Press, 1999. - 349 p.;
5. Филимонова О.Е. Язык и эмоции в английском тексте: когнитивный и коммуникативный аспекты. - СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского государственного педагогического университета, 2001. - 259 с.
6. Шаховский В.И. Эмоции - мотивационная система человеческого сознания // Языковое бытие человека и этноса. - Вып. 6. - Москва-Барнаул, 2003. - С. 215-222.
7. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. - М.: Языки славянской культуры, 1996. - 824 с.

PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT “PEACE” IN POLITICAL SPEECH

Rakhmatova Mehriniso Musinovna
PhD, Dotsent
2000niso@gmail.com;
m.m.rahmatova@buxdu.uz

Rakhmonova Jasmina Anvarovna
Master’s student of Bukhara
State University

Abstract. This study investigates the linguistic mechanisms through which the concept of peace is discursively constructed in institutional political speech. Drawing on Conceptual Metaphor Theory (CMT), the article analyzes a 2026 graduation address delivered by Zohran Mamdani at the New York Police Department. The study argues that peace is constructed through the dominant conceptual metaphor “peace as home,” in which elements of the domestic sphere are mapped onto the political sphere of urban governance and public safety. Through this metaphorical mapping, abstract notions of stability, security, and civic unity are grounded in the culturally shared experience of home and family. The analysis demonstrates how domestic imagery humanizes state authority, reduces the symbolic distance between institutions and citizens, and functions as a discursive strategy of social reconciliation. The findings contribute to research in political discourse analysis, peace linguistics, and metaphor studies by demonstrating how metaphorical framing can serve as a subtle mechanism of de-escalation in contemporary urban governance discourse.

Keywords: conceptual metaphor theory, political discourse, peace linguistics, metaphor analysis, institutional communication

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются лингвистические механизмы, посредством которых концепт мира дискурсивно конструируется в институциональной политической речи. Опираясь на Conceptual Metaphor Theory (теорию концептуальной метафоры), статья анализирует речь Zohran Mamdani, произнесённую в 2026 году на церемонии выпуска в New York Police Department. В исследовании утверждается, что мир конструируется посредством доминирующей концептуальной метафоры «мир как дом», в

рамках которой элементы домашней сферы проецируются на политическую сферу городского управления и общественной безопасности. Благодаря такому метафорическому переносу абстрактные понятия стабильности, безопасности и гражданского единства укореняются в культурно разделяемом опыте дома и семьи. Анализ показывает, каким образом образы дома гуманизируют государственную власть, сокращают символическую дистанцию между институтами и гражданами и функционируют как дискурсивная стратегия общественного примирения. Полученные результаты вносят вклад в исследования политического дискурса, лингвистики мира и теории метафоры, демонстрируя, что метафорическое моделирование может служить тонким механизмом деэскалации в современном дискурсе городского управления.

Ключевые слова: теория концептуальной метафоры, политический дискурс, лингвистика мира, анализ метафоры, институциональная коммуникация

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda tinchlik konseptining institutsional siyosiy nutqda diskursiv tarzda shakllanishini ta’minlovchi lingvistik mexanizmlar tahlil qilinadi. Tadqiqot Conceptual Metaphor Theory (Kontseptual metafora nazariyasi - CMT) asosida Zohran Mamdani tomonidan 2026-yilda New York Police Department bitiruv marosimida so‘zlangan nutqni o‘rganadi. Tadqiqotda tinchlik “tinchlik - uy” konseptual metaforasi orqali shakllantirilishi asoslab beriladi. Mazkur metaforada maishiy hayotga oid tushunchalar shahar boshqaruvi va jamoat xavfsizligining siyosiy sohasi bilan qiyosiy tarzda bog‘lanadi. Ushbu metaforik xaritalash orqali barqarorlik, xavfsizlik va fuqarolik birdamligi kabi mavhum tushunchalar uy va oilaga oid madaniy jihatdan umumiy tajribalar asosida talqin qilinadi. Tahlil natijalari maishiy obrazlarning davlat hokimiyatini insoniylashtirishini, institutlar hamda fuqarolar o‘rtasidagi ramziy masofani qisqartirishini va ijtimoiy yarashuvning diskursiv strategiyasi sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari siyosiy diskurs tahlili, tinchlik lingvistikasi va metafora tadqiqotlari sohasiga hissa qo‘shib, metaforik freymlash zamonaviy shahar boshqaruvi diskursida deeskalatsiyaning nozik mexanizmi sifatida namoyon bo‘lishini yoritadi.

Kalit so‘zlar: kontseptual metafora nazariyasi, siyosiy diskurs, tinchlik lingvistikasi, metafora tahlili, institutsional kommunikatsiya.

INTRODUCTION

This study investigates how the concept of peace is constructed in institutional discourse through metaphorical framing. Specifically, it analyzes a graduation address delivered to the 2026 New York Police Department Police Academy class, focusing on how the speaker constructs a narrative of public safety and civic unity. Drawing on Conceptual Metaphor Theory (Lakoff & Johnson, 1980), the study argues that the speech systematically frames peace through a "peace-as-home" metaphor, in which elements associated with domestic life-family, safety, and belonging-are mapped onto the political domain of urban governance. Through this mapping, the city is represented as a shared household, and institutional actors are positioned as guardians of collective well-being.

LITERATURE REVIEW AND RESEARCH METHODOLOGY

This research is grounded in Conceptual Metaphor Theory (CMT), developed by George Lakoff and Mark Johnson (1980), which proposes that metaphor is not merely a stylistic device but a fundamental mechanism of human cognition. According to this framework, abstract concepts are commonly understood through mappings from more concrete experiential domains. Conceptual metaphors operate through source and target domains. The source domain consists of familiar experiences drawn from everyday life, while the target domain represents more abstract concepts such as politics, morality, or peace. Through metaphorical mapping, elements of the source domain structure how the target domain is conceptualized.

Political discourse frequently relies on such metaphors to shape public understanding. Lakoff (2004) demonstrates that metaphors rooted in family structures play a particularly influential role in political narratives, where governments are framed as parental authorities and citizens as family members. These metaphorical structures influence how audiences interpret issues such as security, responsibility, and social order. Within the emerging field of peace linguistics (Friedrich, 2007), scholars examine how language contributes to either the escalation or de-escalation of social conflict. From this perspective, metaphorical framing can function as a powerful discursive tool that promotes reconciliation by emphasizing shared values and collective identity. The present study builds on these theoretical insights by examining how the home domain functions as a metaphorical framework for conceptualizing peace in institutional discourse.

The research employs qualitative discourse analysis combined with conceptual metaphor analysis. The primary data consist of a transcribed 2026 New

York Police Department Police Academy graduation address delivered to newly appointed officers. Graduation speeches represent a significant genre of institutional communication, as they both celebrate institutional identity and articulate broader social values. The analytical procedure involved three stages:

1. Identification of metaphorical expressions related to home, family, and domestic life.
2. Categorization of these expressions according to their metaphorical mappings between source and target domains.
3. Interpretation of their discursive function within the broader narrative of peace and civic responsibility.

Through this process, recurring metaphorical patterns were identified, revealing a systematic conceptual structure that frames peace through the metaphor of home.

ANALYSIS AND RESULTS

The analysis reveals three major metaphorical mappings that construct the conceptual framework of peace as home.

1. The City as a Shared Household

Example from the speech: “Millions of people call it home.”

This statement shifts the definition of the city from a purely administrative territory to a shared domestic space. By emphasizing the notion of “home,” the speaker frames urban life as a collective environment characterized by belonging and mutual responsibility. Within this metaphorical mapping:

- “City” → Household
- “Citizens” → Family members

Such framing reduces the perceived distance between the governing institution and the population. Instead of a hierarchical relationship between authority and subjects, the discourse constructs a communal environment of shared residence and responsibility.

2. Peace as Family Completeness

Another key metaphor appears in the following statement: “No dinner table has an empty seat today.”

Here, the “empty seat” functions as a symbolic representation of loss caused by violence. By referencing a family dinner table, the speaker evokes one of the most universally recognized symbols of domestic unity and emotional security. In this context:

- “Violence” → Disruption of the household
- “Peace” → Preservation of family completeness

Through these metaphors, peace is defined not abstractly but as the continued presence of loved ones within the home, making the concept emotionally tangible for the audience.

3. Police Officers as Guardians of the Household

The speech also emphasizes familial relationships when acknowledging the support systems of the graduating officers: “Parents, grandparents, siblings, spouses, kids…”

The enumeration of family roles serves two rhetorical functions. First, it situates police officers within a broader social network, emphasizing their identity as members of families and communities. Second, it frames institutional service as an extension of familial protection. Through this mapping:

- “Police officers” → Guardians of the household
- “City” → Extended family

Such framing humanizes institutional authority and presents law enforcement as a protective function rooted in social care rather than coercion.

The metaphorical structure identified in the speech illustrates how political discourse can construct peace through emotionally resonant cognitive frames. The “peace-as-home” metaphor transforms abstract ideas of security, governance, and social order into familiar domestic experiences. Rather than employing traditional political metaphors rooted in conflict-such as war, battle, or defense-the speech emphasizes metaphors associated with care, belonging, and protection. This linguistic strategy aligns with broader principles of peace linguistics, where the choice of metaphor can subtly shape perceptions of authority, responsibility, and social harmony.

CONCLUSION

Through the systematic use of domestic imagery, the analyzed speech frames the city as a shared household and positions institutional actors as guardians of collective well-being. The “peace-as-home” metaphor functions as a powerful rhetorical mechanism that transforms abstract political ideas into emotionally accessible narratives. By grounding public safety in the universally understood experience of home and family, the speech creates a discursive environment conducive to trust and social cohesion.

Future research may extend this analysis by examining similar metaphorical frameworks across different political contexts, cultures, and institutional settings. Such studies could further illuminate the role of metaphor in shaping narratives of peace, governance, and civic identity.

REFERENCES

1. Beard, A. (2000). The Language of Politics. Routledge.
2. Friedrich, P. (2007). Language, Negotiation and Peace: The Use of English in International Relations. Continuum.
3. Galtung, J. (1969). Violence, peace, and peace research. Journal of Peace Research, 6(3), 167-191.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
5. Lakoff, G. (2004). Don't Think of an Elephant! Know Your Values and Frame the Debate. Chelsea Green Publishing.
6. Schäffner, C. (1996). Political speeches and discourse analysis. Current Issues in Language and Society.
7. Spencer-Oatey, H. (2008). Culturally Speaking: Culture, Communication and Politeness Theory. Continuum.

TIL EVOLYUTSIYASIDA O‘ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI

Qobilova Nargiza Sulaymonovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD
n.s.qobilova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada til o‘zgaruvchanligi va til tejamkorligi tamoyilining nazariy hamda lingvistik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda tilning biologik va ijtimoiy mohiyati bilan bog‘liq evolyutsion o‘zgarishlar, lingvistik tizimning dinamik tabiati hamda tilning barcha sathlarida namoyon bo‘ladigan tejamkorlik mexanizmlari yoritilgan. E. Xaugen, A. Meillet, L. Blumfild, U. Labov, A. Martine va boshqa tilshunoslarning qarashlari asosida til o‘zgarishlarining ichki va tashqi omillari tahlil etilgan. Shuningdek, Andre Martine tomonidan ilgari surilgan sintagmatik va paradigmatik tejamkorlik tamoyillarining til tizimidagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqotda zamonaviy ingliz tilidagi qisqartmalar, fonologik reduksiya hodisalari hamda internet tilining lingvistik innovatsiyalarni shakllantirishdagi roli misollar asosida ko‘rib chiqilgan. Natijalar til tejamkorligi kommunikativ samaradorlikni oshirish, nutqni ixchamlashtirish va til tizimining funksional rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: til o‘zgaruvchanligi, til tejamkorligi, lingvistik evolyutsiya, sintagmatik tejamkorlik, paradigmatik tejamkorlik, fonologik reduksiya, qisqartmalar, internet tili, lingvistik innovatsiya, kommunikativ samaradorlik, eng kam kuch sarfi tamoyili, A. Martine nazariyasi, fonetik o‘zgarishlar, til tizimi, lingvistik dinamika.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и лингвистические основы языковой изменчивости и принципа языковой экономии. В исследовании освещены эволюционные изменения, связанные с биологической и социальной природой языка, динамический характер языковой системы, а также механизмы экономии, проявляющиеся на всех уровнях языка. На основе взглядов Э. Хаугена, А. Мейе, Л. Блумфилда, У. Лабова, А. Мартине и других лингвистов рассмотрены внутренние и внешние факторы языковых изменений. Особое внимание уделено синтагматической и парадигматической экономии, предложенным Андре Мартине, и их роли в языковой системе. В работе также проанализированы сокращения

современного английского языка, явления фонологической редукции и влияние интернет-языка на формирование лингвистических инноваций. Результаты исследования показывают, что языковая экономия является важным фактором повышения коммуникативной эффективности, упрощения речи и функционального развития языковой системы.

Ключевые слова: языковая изменчивость, языковая экономия, лингвистическая эволюция, синтагматическая экономия, парадигматическая экономия, фонологическая редукция, сокращения, интернет-язык, лингвистическая инноватsiя, коммуникативная эффективность, принцип наименьшего усилия, теория А. Мартине, фонетические изменения, языковая система, лингвистическая динамика.

Abstract. This article analyzes the theoretical and linguistic foundations of language variability and the principle of linguistic economy. The study examines evolutionary changes related to the biological and social nature of language, the dynamic character of linguistic systems, and the mechanisms of economy manifested at all language levels. Based on the views of E. Haugen, A. Meillet, L. Bloomfield, U. Labov, A. Martinet, and other linguists, the internal and external factors influencing language change are analyzed. Particular attention is paid to the syntagmatic and paradigmatic economy principles proposed by André Martinet and their role in the linguistic system. The research also discusses abbreviations in modern English, phonological reduction phenomena, and the influence of Internet language on the formation of linguistic innovations. The findings demonstrate that linguistic economy serves as an important factor in increasing communicative efficiency, simplifying speech, and ensuring the functional development of language systems.

Keywords: language variability, linguistic economy, linguistic evolution, syntagmatic economy, paradigmatic economy, phonological reduction, abbreviations, Internet language, linguistic innovation, communicative efficiency, principle of least effort, A. Martinet’s theory, phonetic changes, language system, linguistic dynamics.

KIRISH

Tarixiy va lingvistik tadqiqotlar tilning biologik mohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan lingvistik o‘zgarishlarning muqarrarligini tasdiqlaydi. V.V. Ivanov

ta’kidlaganidek, til - uning rivojlanish bosqichlarining tarixiy almashinuvi natijasidir, bu avvalgi holatning yangisiga aylanishini anglatadi.

Tilshunoslik fanida lingvistik o‘zgaruvchanlik tilning tabiatidan organik ravishda kelib chiqadigan va uning takomillashish istagini aks ettiradigan doimiy o‘zgarish jarayoni sifatida talqin etiladi. Nazariy tilshunoslikda evolyutsion o‘zgarishlarni o‘rganishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Ushbu hodisaning universalligi turli tarkibiy tipdagi tillardan olingan misollar bilan tasdiqlanadi.

Tilning o‘zgaruvchanligini o‘rganish XIX asrdan ancha oldin boshlangan bo‘lsa-da, aynan shu davrda tilshunoslik fanining rivojlanishi asosiy vazifalarni shakllantirishga va avvalgi empirik bazadan foydalanishga imkon beradigan darajaga yetdi.

Til o‘zgaruvchanligi tilshunoslik fanining asosiy o‘rganish ob’ekti hisoblanadi, chunki u tilning doimiy rivojlanayotgan va takomillashib borayotgan tizim sifatida asosiy tabiatini ochib beradi. Ushbu o‘zgaruvchanlikning asosi bo‘lgan evolyutsion jarayonlar til tizimining barqarorligi va dinamikasini ta’minlovchi mexanizmlarni tushunishda muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy sharoitda aloqa jarayonida samarali, aniq va ixcham o‘zaro ta’sir alohida ahamiyatga ega. Lingvistik nuqtai nazardan, bu hodisa til vositalarini tejashga qaratilgan turli xil leksik va sintaktik mexanizmlarning ishlashi bilan izohlanadi.

Leksik semantik sathdagi o‘zgarishlarni nisbatan sodda kuzatish mumkin bo‘lsa-da, grammatik sathdagi jarayonlarni aniqlash va tahlil qilish yanada murakkab usullardan foydalanishni talab qiladi.

Fonetika va fonologiya sohasidagi o‘zgarishlarni o‘rganishda bu qiyinchiliklar yanada seziladi. Til o‘zgarishi, ma’lum sathda, til tuzilishining barcha jihatlarini qamrab oladi. Tilning ma’lum sathlari o‘zgarishsiz qoladi yoki ularning rivojlanishi ehtimoldan yiroq ko‘rinadi. Til tizimining har bir komponenti o‘zgarishlarga moyil, ammo o‘zgarishlarning intensivligi va tabiati o‘zgarishi mumkin.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Lingvistik tadqiqotlarda ko‘pincha til o‘zgarishi sabablari to‘g‘risida qat’iy bayonotlar mavjud. Masalan, E. Xaugen iqlim, tarixiy voqealar, fiziologik xususiyatlar yoki madaniy xususiyatlar kabi tashqi omillar faqat bilvosita tilning ongsiz o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Uning ta’kidlashicha, nemis undoshlarining harakatlanishi, ingliz tilidagi unli

tovushlarning siljishi, roman va german tillaridagi sonlarning umlaut (qisqarishi) kabi muhim jarayonlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri sanab o‘tilgan omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin emas.

Shundan kelib chiqib, ushbu omillarning hech biri o‘z-o‘zidan til o‘zgarishining bevosita sababi emas degan fikrga kelish mumkin. Biroq, tildagi o‘zgarishlar va ijtimoiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniq. Ushbu o‘zgarishlarning manbalarini topish va ularni ijtimoiy tizimning doimiy yoki o‘zgaruvchan belgilari orqali tushuntirish tilshunoslarni til va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganishga undadi.

Til o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tahlili ularning til tizimining barcha darajalarini qamrab oluvchi murakkab va ko‘p qirrali xususiyatlarini namoyish etadi. E. Xaugenning ta’kidlashicha, til o‘zgarishlari tilning o‘zi tomonidan emas, balki odamlar tomonidan harakatga keltiriladi va bu jarayon ko‘pincha alohida ijtimoiy guruhlardan boshlanadi. Ijtimoiy munosabatlar natijasida kelib chiqadigan tillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sezilarli o‘zgarishlarga, shu jumladan fonologik tizimning qayta qurilishiga olib keladi. Masalan, G. Volf qadimgi yuqori nemis undoshlari harakatini o‘rta frank mintaqasi aristokratiyasi bilan bog‘laydi, bu yuqori nemis qabilalari bilan siyosiy ittifoqqa intilib, yangi til shakllarining tarqalishiga yordam berdi u bu jarayonni "elitaning obro‘si" tushunchasiga bog‘laydi, bu ijtimoiy intilishlarning tilni qayta qurishga ta’sirini ko‘rsatadi.

1930-yillarda til o‘zgarishini o‘rganishdagi yondashuvlar juda xilma-xil edi. A. Meyening ta’kidlashicha, “ijtimoiy o‘zgarish til o‘zgarishini tushuntiruvchi yagona o‘zgaruvchan element bo‘lib xizmat qiladi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy o‘zgaruvchanlikning ta’sirini anglatadi”. Aksincha, L. Blumfild bu masalada ancha shubha bilan qaragan, chunki u tovush o‘zgarishlarining sabablari hanuzgacha noma’lumligicha qolayotganini, fonetik tizimning soddalashuvi kabi yaqqol oqibatlariga qaramay, ta’kidlagan. So‘nggi tadqiqotlar til o‘zgarishlarining ijtimoiy jarayon bilan bog‘liqligini tasdiqladi. L. Gosh XX asrning boshlarida Shveytsariyaning Sharmee shaharchasini o‘rganayotganda, besh avlod vakillari unli va undosh tovushlarni turlicha talaffuz qilishlarini aniqladi, bu esa jamiyat ichidagi til o‘zgarishlarining bosqichma-bosqich rivojlanishidan dalolat beradi. U. Labov Nyu-Yorkdagi shahar nutqini o‘rganishda o‘zgarishlar asosan proletar hududlarda sodir bo‘lishini ko‘rdi, bu yerda shahar lahjasi, ijtimoiy obro‘si past bo‘lishiga qaramay, o‘rta sinfdan tobora farq qiladi.

A. Martinening funktsional nazariyasi tovush o‘zgarishlarini ularning ma’nolarni farqlash va ma’lumot uzatishdagi roli orqali ko‘rib chiqadi. Tadqiqotchi ta’kidlashicha, ko‘plab tovush siljishlari tizimning farqlanishni saqlab qolishga intilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu farqlanishga eng kichik kuch sarfi tamoyili tahdid solidi. Tejamkorlik tamoyili fonologik va grammatik siljishlarning ko‘plab jihatlarini tushuntirishga imkon beradi, biroq uning namoyon bo‘lishi til va ijtimoiy kontekstning aniq sharoitlariga bog‘liq. Bu esa til tizimining ichki qonunlarini ham, tashqi ijtimoiy omillarni ham hisobga oladigan fanlararo yondashuv zarurligini ta’kidlaydi. “Til tejamkorligi” atamasi ilk bor fransuz tilshunosi Andre Martinening "Économie des changements phonétiques" (fonetik o‘zgarishlar tejamkorligi) asarida keltirilgan. Vaqt o‘tishi bilan bu tushuncha aniqroq chegaralarga ega bo‘ldi va ko‘pincha “inertsiya” yoki “eng kam kuch sarfi” tamoyili kabi terminlar bilan almashtirildi.

Jorj Kingsli-Sipfning eng kam kuch sarfi qonuni nazariyasiga tayanar ekan, Martine tejamkorlik hodisasi til tizimlarining faoliyatida muntazam kuzatiladigan ob’ektiv haqiqat ekanini ta’kidlaydi. Olim til evolyutsiyasini bir tomondan kommunikativ va ekspressiv ehtiyojlar o‘rtasidagi doimiy qarama-qarshilik va boshqa tomondan kognitiv va jismoniy harakatlarni minimal darajada ushlab turish istagi ta’sirida bo‘lgan jarayon deb ta’riflaydi. J. Sifp tomonidan ilgari surilgan “eng kam kuch sarfi” tamoyili, Martine tomonidan “tejamkorlik” deb talqin qilingan holda, tilshunoslikdagi hatti-harakatlarni boshqarishda asosiy rol o‘ynaydi. Martinening fikriga ko‘ra, tilni tejash lingvistik tizimning o‘zgarishini belgilaydigan ichki omildir. U til tizimining eng samarali shakl va tuzilmalarni tanlash orqali so‘zlovchining energiya sarfini minimallashtirishga intilishini aks ettiradi. Olimning ta’kidlashicha, tejamkorlik tamoyili til evolyusiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi – u yangi elementlarni tizimga kiritish zarurati bilan mavjud birliklardan foydalanish o‘rtasida muvozanatni saqlab turadi. Martine til tejamkorligining ikki asosiy turini ajratadi: sintagmatik va paradigmatik tejamkorlik. Bu toifalar til tuzilmasida namoyon bo‘ladigan tejamkorlikning turli jihatlarini yoritadi hamda til o‘zgarishlari mexanizmlarini tushunishda uning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Tilshunoslikda sintagmatik tejamkorlik tilda mavjud birliklar yoki konstruksiyalarni til resurslarini minimal darajada sarflagan holda maksimal informativlikka erishish maqsadida qo‘llashni anglatadi. Bu jarayon mazmunni ifodalash uchun iloji boricha kam til birliklarini tanlash orqali muloqotni samarali va ixcham tarzda tashkil etishga qaratilgan.

Masalan, “kopiroval apparat” kabi uzun termin o‘rniga “kseroks” singari ixcham variantning tanlanishi aynan ushbu tamoyil bilan izohlanadi. Bu holatda “kseroks” so‘zining lo‘ndaligi va ot sifatidagi umumiy nomga aylanishi ortiqcha ifodalardan qochishga imkon beradi.

Paradigmatik tejamkorlik esa, aksincha, yangi hodisalarni ifodalash uchun til birliklari va ularning kombinatsiyalarining sobit sonini saqlab qolishga qaratilgan. Bu kontekstda fransuz tilshunosi Jan Dyubua va uning hamkasblari til tejamkorligi tamoyili qarama-qarshi kuchlar - muloqot ehtiyoji va til tizimining inersiyasi - o‘zaro ta’siri asosida shakllanishini ta’kidlaydilar. Bu kuchlar doimiy ziddiyatda bo‘lib, tillarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

A. Martine’ning til tejamkorligini o‘rganishga bo‘lgan yondashuvi asosan J. Tsifp asarlaridan ilhomlangan edi. Tejamkorlik konsepsiyasining to‘liq bayoni Martine ijodida 1949-yildan keyin paydo bo‘ladi. Unda u tejamkorlikni ikki qarama-qarshi kuch - kuch sarfini minimallashtirish intilishi va kommunikativ ehtiyojlarni qondirish zarurati - o‘zaro ta’sirining natijasi sifatida ko‘rib chiqadi. Ilk tadqiqotlarida olim asosan til tizimining ishlashidagi vositalarning tejamli ishlatilishi va ratsionalligiga e’tibor qaratgan bo‘lsa, keyingi ishlarida uning yondashuvi yanada keng qamrovli tus oladi.

Devid Kristallning ta’kidlashicha, tejamkorlik tilshunoslikdagi muhim tamoyillardan biri bo‘lib, u nafaqat qisqalikni, balki tahlil davomida ishlatiladigan atamalar sonining minimallashtirilishini ham talab qiladi. J. Munen tahriri ostida chop etilgan “Lingvistik lug‘at”da tilning tejamkorligi - bu eng kam kuch sarfi tamoyilining kommunikativ funksiyaga tatbiq etilishi natijasi ekanligi alohida ta’kidlanadi. Mualliflar tilning barcha ma’lum tillarga xos bo‘lgan ikki bosqichli artikulyatsiyaga ega bo‘lishini aynan ushbu tamoyil faoliyati bilan izohlaydilar. Bu tamoyil cheklanmagan muloqot ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Shuningdek, til tejamkorligi tushunchasi tilning dinamik tabiati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu yerda kommunikatsiya resurslarini cheklovchi inersiya kuchlari bilan o‘zaro tushunishni ta’minlash zarurati o‘rtasida muvozanat saqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tilning ushbu dinamikasi doirasida zamonaviy inson tomonidan samarali va tezkor muloqotni ta’minlash uchun qo‘llaniladigan turli “tejamkor” vositalarni ko‘rib chiqish mumkin. Bu, ayniqsa, hayotning shiddatli sur’atlari sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Tildagi qisqartirishga moyillikning sabablaridan biri ingliz

tilida mavjud bo‘lgan tonal urg‘u (intonatsion aksent)dir, bu esa ingliz tilini boshqa Yevropa tillariga nisbatan yanada ixchamlikka moyil qiladi.

Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy terminologiyadagi leksik tejamkorlik ham lo‘ndalik va aniqlikka intilish bilan izohlanadi. Olimlar ko‘p ma’lumotni qisqa shaklda ifodalovchi neologizmlardan foydalanadilar. Ingliz tilining evolyutsiyasi esa funksional, affektiv (emotsional) va psixologik omillar kabi ko‘plab sabablar bilan belgilanadi.

Zamonaviy hayot sur’atlariga moslashish ehtiyojini hisobga olish nihoyatda muhim, chunki bu tilni ortiqchalikka yo‘l qo‘ymaslik uchun qisqa ifodalarni qo‘llashga undaydi. Masalan, terminlarning takrorlanishi yoki hujjatlarda, tijorat yoki reklama materiallarida tashkilotlarning uzun nomlarining ishlatilishidan qochishda bu ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Qisqartmalarni qo‘llash chastotasining oshib borishi tilshunoslar tomonidan anchadan beri qayd etilgan bo‘lib, bu jarayon nafaqat ilmiy yoki ma’muriy sohalardek maxsus sohalarga, balki kundalik muloqotga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Chexiyalik tadqiqotchi Jozef Grbachek allaqachon 1979-yilda qisqartmalarning uchrash chastotasi oshayotganini ta’kidlab o‘tgan va bu holat til ifodasining aniqligi bilan bog‘liq muhim masalalarni o‘rtaga chiqaradi.

Til tizimida muayyan terminlarning uzoq vaqt davomida ishlatilishi olimlar orasida ma’lum darajada noqulaylik tug‘dirgan - bu, xususan, texnik terminlarning murakkab va tushunilishi qiyin iboralarga aylanishi bilan izohlanadi. Ingliz tilidagi leksik qisqartmalarni keng tarqalishiga qo‘shimcha sabab sifatida kuch tejamkorligiga, ya’ni ba’zan “til erinchoqligi” deb ataladigan holatga intilish ham ko‘rsatiladi. Biroq bu tendensiya faqat ingliz tiliga xos emas - u barcha zamonaviy tillarga xos bo‘lgan umumiy hodisa hisoblanadi. Ushbu holat “lingvistik erinchoqlik” deb ataluvchi jarayonning bir ko‘rinishi sifatida ham ko‘rib chiqilishi mumkin, bunda gaplar va iboralar qisqartiriladi.

Masalan, ingliz tilida ona tilida so‘zlashuvchilar gaplarni to‘liq shaklda emas, qisqartirilgan ko‘rinishda aytadilar, bu esa tilni ikkinchi til sifatida o‘rganayotganlar uchun ba’zida tushunarsiz tuyuladi. “Going to” o‘rniga “gonna” yoki “want to” o‘rniga “wanna” kabi qisqartmalar bunga misoldir. Biroq bu holat fonologik birliklarning reduktsiyasi va eliminasiyasi orqali izohlanadi, ya’ni so‘zlarning qisqarishi nutqni tabiiyroq, silliq va ritmik qiladi.

Qisqartmalar va boshqa ixcham ifodalarning kengayishiga xizmat qilayotgan yana bir muhim omil - bu Internet ta’siridir. N.A. Axrenovaning ta’kidlashicha,

internet tili o‘zining eng yorqin ifodasini tarmoq janrlarida topadi - aynan shu janrlar til innovatsiyalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu janrlarda tilning yangi shakllari eng to‘laqonli tarzda namoyon bo‘ladi va bu holat internet tili orqali adabiy umumxalq tiliga ta’sir ko‘rsatish ehtimolini aniqlash imkonini beradi.

Internet o‘ziga xos til makonini shakllantiradi, bu makonda foydalanuvchilar faol aloqada bo‘lib, til bilan eksperimentlar olib boradilar. Bu esa yangi so‘zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar paydo bo‘lishiga olib keladi. Ular vaqt o‘tishi bilan kundalik muomalaga kirib borishi mumkin. Shunday qilib, internetning tilga ta’siri til va madaniyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarni kengaytiruvchi muhim omil sifatida til amaliyotiga yangi elementlarni olib kiradi.

XULOSA

Demak, til tejamkorligi - bu til tizimining barcha darajalarida, fonetikadan tortib sintaksisgacha bo‘lgan o‘zgarishlarni boshqaruvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Ushbu tamoyil “eng kam kuch sarfiga intilish” tarzida ifodalanadi va u informatsiyani samarali yetkazish bilan kognitiv hamda artikulyator xarajatlarni minimallashtirish o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydi. Bu fikr, ayniqsa, A. Martine va J. Sipf asarlarida alohida ta’kidlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rasulov Z.I. Nutqiy tuzilmalar axborot-diskursiv mazmuni shakllanishi jarayonida tejamkorlik tamoyilining faollashuvi (ingliz va o‘zbek tillari misolida): monografiya. - Buxoro, 2022. - 168 b.
2. Rasulov Z.I. So‘zlashuv nutqi lisoniy o‘zgarishlarning manbai sifatida // O‘zbekistonda xorijiy tillar. - 2022. - № 4(45). – B. 20-29. - DOI: 10.36078/1664529656.
3. Bloomfield L. Language. - New York: Henry Holt, 1933. - 386 p.
4. Campbell L. Historical Linguistics. - Cambridge, Massachusetts: The MIT Press, 1998. - 419 p.
5. Hawkins S., Midgley J. Formant Frequencies of RP Monophthongs in Four Age Groups of Speakers // Journal of the International Phonetic Association. - Cambridge University Press, 2005. - Vol. 35, № 2. - P. 183-199.
6. Iriskulov M.T., Shatunova A.S. English Phonetics. – Tashkent: Uzbekistan State University of World Languages, 2011. - P. 62-75.
7. Labov W., Yeager M., Steiner R. A Quantitative Study of Sound Change in Progress: Report on National Science Foundation Grant GS-3287. - Washington, 1972.

8. Sweet H. The History of English Sounds. - Oxford, 1890. - 450 p.
9. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. - New York, 1921. - 300 p.
10. Martinet A. Économie des changements phonétiques. - Berne: Éditions A. Francke S.A., 1955. - 396 p.
11. Tatsenko N.V. Introduction to Theoretical Phonetics of English: Study Guide. - Sumy: Sumy State University, 2020. - P. 113-114.

ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI

Jalolova Nigina Zavqiddin qizi
BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
I bosqich magistranti
Jalolovanigina@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvomadaniy birliklarning virtual diskursdagi namoyon bo‘lishi hamda ularning kommunikativ va madaniy funksiyalari tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli kommunikatsiyaning jadal rivojlanishi sharoitida internet-muloqotda til va madaniyat integratsiyasining yangi shakllari yuzaga kelayotgani yoritiladi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar, chatlar, forumlar va boshqa onlayn platformalarda qo‘llanilayotgan lingvomadaniy birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Xususan, emoji, mem, heshteg va qisqartmalarning madaniy ma’nolarni ifodalashdagi hamda foydalanuvchilarning ijtimoiy identitetini shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, virtual kommunikatsiyada lingvomadaniy birliklarning interaktiv muloqotni tashkil etishdagi vazifalari tahlil qilinadi. Maqola natijalari zamonaviy lingvokulturologiya va virtual diskurs tadqiqotlari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, lingvomadaniy birliklar, virtual diskurs, internet-muloqot, mem, emoji, heshteg, kommunikatsiya, madaniyat, virtual diskurs.

Аннотация. В данной статье анализируются проявления лингвокультурных единиц в виртуальном дискурсе, а также их коммуникативные и культурные функции. В условиях глобализации и стремительного развития цифровой коммуникации возникают новые формы интеграции языка и культуры в интернет-общении. В исследовании рассматриваются особенности лингвокультурных единиц, используемых в социальных сетях, чатах, форумах и других онлайн-платформах. Особое внимание уделяется роли эмодзи, мемов, хештегов и сокращений в передаче культурных значений и формировании социальной идентичности пользователей. Также анализируются функции лингвокультурных единиц в организации интерактивного общения в виртуальной среде. Результаты

исследования имеют важное научное значение для современных исследований в области лингвокультурологии и виртуального дискурса.

Ключевые слова: лингвокультурология, лингвокультурные единицы, виртуальный дискурс, интернет-коммуникация, мем, эмодзи, хештег, коммуникация, культура, виртуальный дискурс.

Annotation. This article analyzes the manifestation of linguocultural units in virtual discourse, as well as their communicative and cultural functions. In the context of globalization and the rapid development of digital communication, new forms of integration between language and culture in online interaction are emerging. The study examines the specific features of linguocultural units used in social networks, chats, forums, and other online platforms. In particular, the role of emojis, memes, hashtags, and abbreviations in expressing cultural meanings and shaping users' social identities is highlighted. Furthermore, the functions of linguocultural units in organizing interactive communication within virtual environments are explored. The findings of the study are of significant scientific importance for contemporary research in linguoculturology and virtual discourse studies.

Keywords: linguoculturology, linguocultural units, virtual discourse, online communication, meme, emoji, hashtag, communication, culture, virtual discourse.

KIRISH

Globallashuv hamda madaniyatlarning aralashuvi yuz berayotgan hozirgi kunda til va madaniyatning o‘zaro aloqasi, ya’ni lingvokulturologiya sohasi keng o‘rganilmoqda va tahlil qilinmoqda. Ma’lumki, til madaniyatning ko‘zgusi hisoblanadi, chunki unda butun bir millatning dunyoqarashi, fikrlashi, urf-odatlari hamda milliy xarakteri aks etadi. Shuning uchun ham tilni tilshunos olimlar “madaniyat ko‘zgusi”, “madaniyat xazinasi”, “madaniyat tashuvchisi”, “madaniyat quroli” deb ta’riflashadi. Tilshunoslikda esa til va madaniyat mushtarakligini o‘rganuvchi soha sifatida lingvokulturologiya fani shakllangan.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Lingvomadaniy birliklar - bu til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiruvchi lingvistik elementlardir. Ular so‘z, ibora, idiomatik ifoda yoki ijtimoiy konnotatsiyaga ega boshqa har qanday lingvistik shakl bo‘lishi mumkin. Lingvomadaniy birliklarning funksiyasi faqat lug‘aviy ma’noga cheklanmaydi; ularning madaniy va sotsiokultural kontekstdagi o‘rni ham muhim hisoblanadi.

Masalan, bir xalqning urf-odatlari, e’tiqod tizimi, tarixiy voqealari yoki madaniy ramzlari lingvomadaniy birliklar orqali tilga aks etadi. Shu sababli, lingvomadaniy birliklar tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarining kesishgan nuqtasida joylashib, ular yordamida muloqotning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy jihatlarini ham o‘rganish mumkin [1].

Virtual kommunikatsiya maydonida - jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, chatlar, forumlar va boshqa onlayn platformalarda - lingvomadaniy birliklarning shakllanishi va ishlatilishi an’anaviy nutqdan sezilarli darajada farq qiladi. Internet-muloqotning tezkor va ixcham xarakteri tilning qisqa va vizual ifodalanishiga olib keladi. Shuningdek, heshteglar (#) ma’lum bir mavzuni belgilash va madaniy konseptlarni aks ettirish imkonini beradi, bu esa virtual lingvomadaniy birliklarning kommunikativ samaradorligini oshiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Virtual muloqotdagi lingvomadaniy birliklarning yana bir ko‘rinishi - memlar va qisqa vizual ifodalardir. Memlar foydalanuvchilarga ma’lum bir madaniy tajriba, hazil yoki ijtimoiy sharhni tezkor tarzda yetkazish imkonini beradi.

Virtual lingvomadaniy birliklarning kommunikativ roli faqat ma’no yetkazish bilan cheklanmaydi. Ular ijtimoiy identitetni ifodalash, hamjamiyatni shakllantirish va madaniy kontekstni uzatish vazifasini ham bajaradi [5]. Masalan, ma’lum bir heshteg yoki mem ijtimoiy guruhning umumiy qiziqishlari, qadriyatlari yoki muayyan hodisalarga munosabatini aks ettirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, lingvomadaniy birliklar virtual nutqda interaktiv muloqotning markaziy elementi bo‘lib, foydalanuvchilarning kommunikativ xatti-harakatlarini tartibga soluvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, lingvomadaniy birliklar virtual nutqda o‘zining an’anaviy va yangi ifoda vositalari orqali namoyon bo‘ladi. Ular til va madaniyatning integratsiyasini ta’minlab, foydalanuvchilarning his-tuyg‘ularini, ijtimoiy identitetini va hamjamiyatdagi o‘rnini aks ettiradi. Shu bilan birga, virtual maydondagi lingvomadaniy birliklarni tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham muhim bo‘lib, zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Козлова М.А. Лингвокультурные единицы и их функции в современном дискурсе // Исследования современного дискурса. – 2019.

2. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - Toshkent: Fan, 2008. - 286 b.
4. Susan C. Herring. Discourse in Web 2.0: Familiar, Reconfigured, and Emergent. - Washington D.C.: Georgetown University Press, 2013. - 352 p.
5. Xalilova R.R. Internet muloqotlarning pragmatik tamoyillari // So‘z san’ati xalqaro jurnali. - Toshkent, 2021. - № 1. - B. 113-119.

DIDAKTIK O‘YINLARNING ONA TILI TA’LIMIDAGI O‘RNI

Kamolova Nilufar Saxibovna
BXU magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limida didaktik o‘yinlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Didaktik o‘yinlarning o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, grammatik tushunchalarni mustahkam o‘zlashtirish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, grammatik o‘yinlarni tashkil etishning metodik jihatlari hamda ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Didaktik o‘yinlar, ona tili ta’limi, boshlang‘ich sinf, grammatik o‘yinlar, savodxonlik, ta’lim metodlari, o‘quv faoliyati, mustaqil fikrlash, jamoaviy ish, ta’lim samaradorligi.

Annotation: This article discusses the role and significance of didactic games in mother tongue education at the primary school level. The study analyzes the potential of didactic games in improving students’ literacy, strengthening the acquisition of grammatical concepts, and developing independent thinking, creativity, and teamwork skills. The methodological aspects of organizing grammatical games and their contribution to enhancing educational effectiveness are alsoexamined.

Keywords: Didactic games, mother tongue education, primary education, grammatical games, literacy, teaching methods, learning activity, independent thinking, teamwork, educational effectiveness.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение дидактических игр в обучении родному языку в начальных классах. Анализируются возможности дидактических игр в повышении грамотности учащихся, прочном усвоении грамматических понятий, развитии самостоятельного мышления, творческих способностей и навыков коллективной работы. Также освещаются методические аспекты организации грамматических игр и их влияние на повышение эффективности образовательногопроцесса.

Ключевые слова: Дидактические игры, обучение родному языку, начальное образование, грамматические игры, грамотность, методы обучения, учебная деятельность, самостоятельное мышление, командная работа, эффективностьобразования.

KIRISH

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi ushbu fanning bilimlar tizimini egallash, so‘zlarning grammatik shakllarini ishlab chiqish, savodli

yozuv ko‘nikmasini hosil qilishdir. Bu vazifalarni ro‘yobga chiqarish o‘ta murakkab bo‘lib, o‘qituvchining xilma-xil o‘qitish metodlarini egallashini, o‘quvchilarni mumkin qadar ijodiy fikrlashga o‘rgatishni va har bir mashg‘ulotga qiziqtira bilishni taqozo qiladi. Bolalarning yozuv savodxonligini oshirish uchun uning xotirasida so‘zning yorqin tassavurini mustahkamlash, so‘z tarkibi va gap bo‘laklarini to‘g‘ri hamda tez farqlash qobiliyatini o‘stirish kerak.

Didaktik o‘yinlar ta’limning ko‘rgazmaliligi, o‘qituvchining nutqini va bolalar harakatini o‘z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko‘rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug’iladi. Bu esa o‘qituvchining aytganlarini bolalarning o‘ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya’ni didaktik o‘yin qoidalarini o‘zlari bajarishlariga undaydi. Ta`lim o‘yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o‘yin vaqtida zo‘r qiziqish bilan harakat qiladilar. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar hamjihatlik va intizomlikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o‘yin g’alaba qozonish bilan bog’liq bo‘lib, o‘yin shartlari va qoidalariga qat’iy va izchil rioya qilishni talab etadi. “Kim aniqroq va tezroq”, “Bo‘sh kelma”, “Eng yaxshi hisobchi”, “Ko‘rganni eslab qolish” kabi o‘yinlarni o‘tkazish paytida o‘quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo‘lishiga o‘quvchilarning o‘zlarining tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osayishtalik bilan qaytib kelib o‘tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ona tili qonun-qoidalari, hodisalari mavhum fikr yuritishni taqozo etadi. Shu tufayli ular ko‘pincha o‘ynash, jismoniy harakat qilishga intiladilar. Amaldagi o‘quv dasturiga asosan o‘yin mashg‘ulotlari bugungi darslarning qurilishida tez-tez uchrab turadi. Chunki bolaga berilayotgan bilimni o‘yinlar vositasida singdirish quruq qoida yodlash va surunkasiga mashq qildirishdan qiziqroq tuyuladi va o‘tilgan mavzuning mustahkam esda saqlanishiga imkon beradi.

Grammatik o‘yinlarni o‘tkazish usullari xilma-xil bo‘lib, uni maktab o‘qituvchilari mukammal egallab olishlari va o‘quvchilarning o‘zini shunga o‘rgatish zarur. Grammatik o‘yinlar til materiallarini o‘rgatishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Bu o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Grammatik o‘yinlar bolalarda mustaqillikni tarbiyalaydi. O‘quvchilarni tez o‘ylashga, mustaqil fikrlab javob berishga, zehnli bo‘lishga, har bir ishda tashabbus ko‘rsatishga undaydi. Faoliyat ko‘rsatishga chorlaydi. Bu mashg‘ulotlar bolalarning diqqatini bir yerga to‘playdi. O‘quvchilarda sog‘lom musobaqa ruhini tug‘diradi. Bunday didaktik o‘yinlar va ularda berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarda jamoa bilan ishlash, o‘ziga va o‘z jamoasiga hamda o‘zgalarga hurmat-e`tiborda bo‘lish xislatlari shaklanadi. O‘yin jarayonida ularning muomala madaniyatida ijobiy munosabatlar tarkib topadi. Bu

o‘yinlar o‘quvchilarni faollik ko‘rsatish, topqirlik, fahm-farosatli bo‘lishga, dars jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotga taqbiq eta olishni talab qiladi.

Grammatik o‘yinlarni tashkil qilish ham bir qator metodik omillarni hisobga olishni taqozo etadi. Bu usulni dars jarayoniga tadbiq etar ekan o‘qituvchi har bir mavzuga, uning mazmuniga ijodiy yondashishi zarur. Yana bir muhim tomoni grammatik o‘yinlarni uyushtirishda sinf o‘quvchilarining xususiyatlari ham hisobga olinishi kerak. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, qaysi sinfda o‘qishi va o‘rganilgan mavzularni hisobga olish va mashg‘ulot mazmunini ana shu ko‘rsatkichlarga qarab tuzish grammatik o‘yinlarning samarali uyushtirilishiga ijobiy ta`sir qiladi. O‘rganilayotgan grammatik tushunchalarni tez va mustahkam o‘zlashtirib olish imkonini beradi. Grammatik o‘yinlar grammatikaning qaysi bo‘limi yuzasidan o‘tkazilishiga qaramay, ular tasodifan bo‘limasligi kerak. O‘qituvchi unga ham darsga tayyorgarlik ko‘rganday puxta hozirlik ko‘rishi lozim.

Har qanday grammatik o‘yin uyushtirilar ekan unga bolalar tayyor bo‘lishlari kerak. Aks holda bola bajarilishi rejalashtirilgan ishning mazmunini tushunmagan holda unga kirishadi. O‘zi lozim ko‘rgan yo‘nalishda ishga kirishadi.

Bu holat o‘quvchining inteliktual holatini o‘stirmaydi. Bolani chalg‘itib qo‘yadi. Agar o‘yinga bir necha bor shunday kirishilabersa, bunday mashg‘ulot zerikarli bo‘lib qoladi va oqibatda bolaning bilish faoliyatiga aks ta`sir qiladi. Uning oldini olish maqsadida o‘quvchilarga beriladigan har bir topshiriqning mazmuni to‘liq tushuntirilishi, o‘xshash misollar bajarib ko‘rsatilishi, namuna berilishi lozim. Grammatik o‘yinlar bolalarning bilim darajasiga qarab murakkablashtirilishi yoki soddalashtirilishi mumkin. Buni o‘qituvchining o‘zi belgilaydi. Bolalarga fonetikadan so‘zning oxiriga bir tovush qo‘shib yangi so‘z hosil qilish o‘yini o‘tkazilganda so‘zga qo‘shilgan tovushni so‘zning tarkibi bo‘yicha tahlil qilish topshirilsa o‘yin murakkablashadi.Berilgan so‘zlar ishtirokida gap tuzish o‘yini o‘tkazilganda ishni qaysi so‘zdan boshlab ko‘rsatilsa o‘yin soddalashadi.

O‘yinni soddalashtirish yoki murakkablashtirishni o‘qituvchining o‘zi o‘ylab ko‘rishi lozim. O‘yinga bir-ikki nafar bolaning faol qatnashishi bilan chegaralanib qolmaslik zarur. Unga o‘quvchilarning aksariyat qismi, iloji bo‘lsa hammasi faol qatnashishi kerak. Chunki o‘yin bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalaydi.O‘yinlarni bolalar jamoa bo‘lib bajarar ekan, uning barcha a`zolari faol qatnashgandagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu mashg‘ulotda barcha oq`uvchi bir maqsad yo‘lida harakat qiladi. Hamma g‘olib bo‘lishga intiladi. Bunday holat har bir o‘quvchining ma`suliyatini oshiradi.

Javob berayotgan o‘quvchi o‘z guruhining ishonchini oqlashga harakat qiladi. Noto‘g‘ri javob bersa, bolalar oldida o‘zini noqulay sezadi. Ayrim hollarda o‘zini-o‘zi koyiydi. Keyingi o‘yinlarga puxta hozirlik ko‘radi. Bunday mashg‘ulotlar bolalarni ko‘proq o‘qishga chorlaydi. G‘oliblik nashidasini birgalashib surishga undaydi. O‘yinda kimdir mag‘lubiyatga uchraydi. Bu tabiiy hol. Shuning uchun o‘yin bellashuvlar bolalarni yana bir xislatga- mag‘lubiyatni tan olishga o‘rgatadi.

Bu esa bola tarbiyasida juda muhim. Ba`zan o‘quvchilar orasida o‘z mag‘lubiyatini tan olmay, kimdandir kamchilik axtarishga, hakamlarni “sotilgan”likda ayblashadi. Maktab hayotida bunday voqealar tez-tez uchrab turadi. Bunday holatda o‘quvchiga yotig‘i bilan tushuntirishdan zerikmaslik lozim. Bir-ikki marta shunday munozaradan keyin o‘yin mashg‘ulotlarini to‘xtatib qo‘ymaslik kerak emas.

XULOSA

Bolalarga o‘yinni o‘rgatishdan muayyan ta’limiy maqsad nazarda tutiladi. O‘yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O‘yin o‘tkazilish shakllari va usullari ta’limning boshqa turlaridan farq qiladi. Didaktik o‘yin usullari cheksiz, takrorlash va o‘zgartirish, unga turli yangiliklar kiritish imkoni bor. Masalan, biz “Jimjitlik” o‘yinining 5-7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko‘proq takrorlab o‘tkazdik, “Nima o‘zgardi?” turidagi o‘yin 5 xil turli ko‘rsatmali material bilan o‘tkazildi. Natijada o‘yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo‘lishiga hamda o‘yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilishiga erishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Klarin M. V.. Pedagogik texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirish vositasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M.. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.

3. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

4. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2021.

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Ona tili fanidan amaldagi o‘quv dasturi. – Toshkent, 2024.

SAVOD O‘RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

G‘iyosova O‘g‘iloy Sultonovna
BXU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limning savod o‘rgatish bosqichida interfaol va ko‘p sezgili o‘qitish usullaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Muallif alifbo va savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda o‘qish va yozish ko‘nikmalarini samarali shakllantirish masalalarini tahlil qiladi. Shuningdek, didaktik o‘yinlar, mantiqiy mashqlar va ko‘p sezgili yondashuvlarning afzalliklari ochib berilgan hamda ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: savod o‘rgatish, alifbe, interfaol metodlar, ko‘p sezgili yondashuv, didaktik o‘yinlar, boshlang‘ich ta’lim, o‘qish va yozish ko‘nikmalari, innovatsion pedagogika.

Annotation: This article discusses the importance of using interactive and multisensory teaching methods in the literacy instruction process at the primary education level. The author analyzes the need to consider learners’ age and psychological characteristics during alphabet and literacy teaching, increase their interest in learning, and effectively develop reading and writing skills. The paper also highlights the advantages of didactic games, logical exercises, and multisensory approaches, substantiating their role in improving educational effectiveness.

Key words: literacy instruction, alphabet teaching, interactive methods, multisensory approach, didactic games, primary education, reading and writing skills, innovative pedagogy.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение использования интерактивных и мультисенсорных методов обучения на этапе формирования грамотности в начальном образовании. Автор анализирует необходимость учета возрастных и психологических особенностей учащихся в процессе обучения алфавиту и грамоте, повышения их интереса к обучению, а также эффективного формирования навыков чтения и письма. Особое внимание уделяется дидактическим играм, логическим упражнениям и мультисенсорному подходу, раскрывается их роль в повышении эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: обучение грамоте, алфавит, интерактивные методы, мультисенсорный подход, дидактические игры, начальное образование, навыки чтения и письма, инновационная педагогика.

KIRISH

Boshlang‘ich sinflarning o‘quv dasturida har bir o‘quv bosqichi yoki yil davomida o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalariga nisbatan talablar aniq belgilab qo‘yilgan. Bu esa o‘quvchilarga puxta bilim berish va ularni har tomonlama ongli qilib tarbiyalashda o‘quvchilar mas`uliyatini oshiradi. Boshlang‘ich sinflardagi barcha predmet darslarida jumladan, “Alifbe”ni o‘rgatishda o‘quvchilarni ijodiylikka, mustaqillikka undaydigan amaliy ishlarga e`tibor ortmoqda. Masalan, “Alifbe”ni o‘rgatishda o‘qituvchining bayoni, suhbati va o‘quvchilarning mustaqil ishlari hamda darslikda keltirilgan rasmlar bilan matnlarning o‘zaro aloqadorligi, mutanosibligiga alohida e`tibor beriladi. Bu aloqadorlik va mutanosiblikni ta`minlovchi metodlardan foydalaniladi.

Alifboni o‘rgatish bo‘yicha an’anaviy usullar ko‘pincha yodlashga asoslanadi, bu esa kichik yoshdagi bolalar uchun zerikarli bo‘lishi va har xil o‘quv ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarga samarali ta’sir qilmasligi mumkin. Shuning uchun, erta ta’lim bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida ingliz alifbosini o‘rgatish ularning savodxonlik ko‘nikmalarini – o‘qish va yozishni – shakllantirishning asosiy bosqichidir. Bu yoshdagi bolalarda tilni o‘zlashtirish faqat harflarni va ularning tovushlarini o‘rganish bilan cheklanmaydi; balki fonologik naqshlarni tushunish va yozishga tayyorgarlik kabi ko‘nikmalar ham rivojlanadi. Bu esa keyinchalik o‘qish tezligi va yozish qobiliyatini shakllantirishda muhim poydevor bo‘ladi. Afsuski, ko‘plab maktabgacha ta’lim muassasalarida hali ham bir xil va takrorlanuvchi dars usullari keng tarqalgan. Bunday yondashuvlar esa faol, tajriba orqali o‘rganadigan, harakatni yoqtiradigan bolalarni zeriktiradi, ularning qiziqishini yo‘qotadi. Boshqacha aytganda, bunday yondashuv har xil o‘quv uslubiga ega bo‘lgan bolalar uchun samarali emas. So‘nggi yillarda ko‘p sezgirlikka asoslangan o‘qitish yondashuvi – ya’ni bir nechta sezgi organlari orqali o‘rgatish – keng e’tirof etilmoqda. Bu metodda bolalar ko‘rish, eshitish, teginish va harakat orqali o‘rganadilar. Masalan, ular qumga harf yozadilar, qo‘shiq aytib tovushlarni eslab qoladilar yoki plastilindan harflar yasaydilar. Bunday faoliyatlar nafaqat o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi, balki harflar va ularning tovushlari orasidagi bog‘liqlikni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ko‘p sezgili yondashuv bolalarning tabiiy qiziqishini, o‘yin orqali o‘rganishga bo‘lgan moyilligini inobatga oladi. Bu esa ularning stresssiz, tabiiy sharoitda bilim olishiga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har xil sezgi turlari orqali o‘qitish ayniqsa o‘quv farqlari bo‘lgan bolalar – masalan, e’tibor yetishmovchiligi yoki disleksiya bo‘lganlar uchun ayni muddao hisoblanadi. Bu usul nafaqat o‘zlashtirishni osonlashtiradi, balki tengdoshlar bilan hamkorlik va muloqotni ham rivojlantiradi. Ilgari olib borilgan amaliy kuzatuvlarga asoslanib aytish mumkinki, ko‘plab bolalar alifbo harflarini shakl va tovush jihatidan bog‘lashda qiynaladilar. Vizual o‘rganishga moyil bolalar rang-barang va

ko‘rgazmali vositalar yetishmaganda qiynaladi, eshitish orqali o‘rganuvchilar esa tovushlarga yetarli e’tibor berilmaganda o‘zlashtira olmaydi.

Harakat orqali o‘rganadigan bolalar esa doimiy o‘tirish, ish varaqalari bilan ishlashga asoslangan darslardan ko‘proq aziyat chekadi. Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘zining uzoq yillik tajribasida shuni ko‘rgan: odatdagi yodlashga asoslangan metodlar bolalarda charchoq, zerikish, ayrim hollarda esa umuman o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqning yo‘qolishiga olib keladi. Bu esa bilimlar orasidagi uzilishlarga, savodxonlikdagi bo‘shliqlarga sabab bo‘ladi. Shu bois, har xil o‘quv uslublarini hisobga oluvchi, har tomonlama qamrovli va innovatsion yondashuvlar zarurligi kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz alifbosini samarali o‘rgatish uchun ko‘p sezgili o‘qitish yondashuvi o‘zini oqlamoqda va global ilg‘or amaliyotlarga mos keladi. Ana shu asosda olib borilgan tadqiqotlar ushbu uslubning samaradorligini chuqurroq yoritib berishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich talimda “Alifbe” davri bolalarga savod o‘rgatishning dastlabki va muhim bosqichi hisoblanadi. Bu davrda bolalarga, dastlab, alifbedagi harflar o‘rgatilib, shu harflar ishtirokidagi so‘zlarni o‘qiy bilishga va yozishga malaka hosil qilinadi. Alifbeni o‘rganish darslari tugagach, aniqrog‘i, birinchi sinfning uchinchi choragidan boshlab, o‘quvchilarga o‘rgangan so‘zlarini qo‘shib, matn tuzishga o‘rgatiladi. Ko‘p sezgili yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalar orasida o‘zbek alifbosini o‘rganishni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Ko‘rish, eshitish, harakat va teginish kabi faoliyatlarni birlashtirish orqali o‘quvchilar tovushlarni anglash, harflarni tanish va yozuv ko‘nikmalarida an’anaviy usullarga nisbatan ancha yaxshi natijalar ko‘rsatdi. Biroq, bu natijalarga kichik ishtirokchilar guruhi va avvalgi an’anaviy usullar bilan tanishlik ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin. Shu sababli, yanada kengroq va turli qatlamlarni qamrab oluvchi tadqiqotlar o‘tkazishga ehtiyoj bor. Amaliy jihatdan qaralganda, bu yondashuvni muvaffaqiyatli joriy qilishda muallimlarning malakasi va kerakli resurslarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Mazkur yondashuvning ijobiy natijalari uni kundalik dars jarayonlariga barqaror pedagogik strategiya sifatida qo‘shish imkonini ko‘rsatadi. Uzoq muddatda bu metod o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga mos, inklyuziv va farqlashtirilgan ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Maktablar ushbu uslubning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilarga doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyatlarini yaratishlari, o‘quv materiallari va uskunalarni rejalashtirilgan ravishda taqsimlashlari hamda darslik va rejalashtirishda ko‘p sezgili yondashuvni turli fanlar kesimida uyg‘unlashtirishni ko‘zda tutishlari lozim. Bu nafaqat erta savodxonlikni rivojlantirishga hissa qo‘shadi, balki barcha o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli, quvvatlovchi va samarali ta’lim tajribasini yaratadi.

Savod o‘rgatish davri sentabrdan dekabrgacha davom etadi. Savod o‘rgatish jarayoni ikki davrni: alifbogacha tayyorlov davri va alifbo (asosiy) davriga ajratiladi. Tayyorlov davri ikki bosqichga bo‘linadi:

1. Tovush – harf o‘rganilmaydigan bosqich;
2. Unli tovushlar va harflar o‘rganiladigan bosqich.

Alifbo davri o‘rganiladigan tovush va harflar, so‘zlarning va bo‘g‘inlarning tuzilishi, murakkablik darajasiga ko‘ra 3 bosqichga bo‘linadi. Bu davrda bolalarning fonematik eshitish qobiliyatlari o‘stiriladi, o‘quvchilarning atrof muhit haqidagi tasavvurlari boyitiladi. Savod o‘rgatish darslari o‘quvchilarning umumiy kamolotiga, ularda do‘stlik, o‘rtoqlik kabi xislatlarni milliy qadriyatlarni shakllantirish, jamoa ichida o‘zini boshqarish, mehnatsevarlik, halollik, rostgo‘ylik, o‘qishga ongli munosabatda bo‘lish kabi ijobiy xususiyatlarni tarbiyalashga ko‘maklashuvi lozim.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qish va yozishga o‘rgatish tilshunoslik, pedagogika, adabiyotshunoslik va metodika sohasida erishilgan yutuqlarga asoslangan, takomillashgan hozirgi zamon analitik-sintetik tovush metodi vositasida amalga oshiriladi hamda o‘quvchilar nutqini rivojlantirishni nazarda tutadi. Darsda o‘quvchilar gapni so‘zlarga, so‘zni bo‘g‘inlarga, bo‘g‘inni tovushlarga ajratadilar, so‘zdagi tovushlarni tartibi bilan aytishni o‘rganadilar, o‘rganilgan tovushlarni o‘zaro bog‘lab so‘z tuzish va o‘qish yuzasidan mashq qiladilar.

XULOSA

Bolalar tovushlarni yozuvda harf bilan ifodalash, harflardan bo‘g‘in va so‘z tuzishga, ularni o‘qishga o‘rganadilar. Gap va bog‘lanishli matnni ongli, to‘g‘ri, bo‘g‘inlab ravon o‘qish, so‘ngra so‘zni butunicha sidirg‘a o‘qish malakasini egallaydilar. O‘quvchilarni o‘qish va yozishga o‘rgatish baravar olib boriladi. Yozuvda tovushlarni harflar bilan belgilashga, harflar va bo‘g‘inlardan So‘z tuzishga, so‘z va gaplarni yozma to‘g‘ri shakllantirishga, talaffuzi bilan yozilishida farq qilmaydigan so‘zlarni va qisqa gaplarni eshitib yozishga, gapning birinchi so‘zini, kishilarning ismini, shahar, qishloq, ko‘cha nomlarini, ayrim hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlarni bosh harf bilan yozishni bilib oladilar. Savod o‘rgatish darslarida o‘quvchilarning boshqalar nutqini diqqat bilan tinglash va nima haqida gapirayotganini tushunib olish ko‘nikmalari o‘stiriladi.

Bolalar sinfdoshlari oldida gapirishga, o‘qituvchining savollariga javob berishga, topshiriqlarni mustaqil bajarishga, bilmagan va o‘zlari qiziqqan narsalar to‘g‘risida so‘rab bilib olishga, o‘qiganlarini qayta hikoyalashga, o‘zlari kuzatgan, ko‘rgan kinofilmlar hamda eshitgan va o‘qigan hikoya, ertaklari, kuzatgan rasmlari haqida hikoya qilib berishga o‘rganadilar. Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar olgan bilim va hosil qilingan ko‘nikmalar birgalikda o‘qish jarayonida maxsus sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirishga tatbiq etiladi. Savod o‘rgatish davrida sinfdan tashqari o‘qish haftada bir marta o‘tkaziladi va unga o‘qish darslarining ikkinchi qismidan 15- 20 daqiqa ajratiladi.

O‘qish va yozishga o‘rgatish darslarida bolalar ruhiyatini hisobga olgan holda ish turlarini mukammallashtirish talab etiladi, dam olish mashqlari o‘tkaziladi. “Alifbe”, kartoteka va metodik qo‘llanmalarda berilgan didaktik o‘yinlardan foydalanib, bir turidan boshqa turiga o‘tiladi va o‘quvchilar toliqishining oldi oladi. Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tabiatdagi o‘zgarishlar, kishilarning turli mavsumda bajaradigan mehnatlarini kuzatadilar va shular asosida hikoya tuzishni o‘rganadilar. Bu davrda olib boriladigan barcha ishlarda oila va maktab hamkorligining uzviyligi, o‘zaro muomala madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
2. G‘afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. Alifbe. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2020.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – Toshkent, 2023.

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
HARBIY TA’LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI Sotvoldiyev Abdulhoshim Yuldashovich	**173**
HARBIY TA’LIM FAKULTETI TALABALARIDA TOLERANTLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI Qarshiev Azamat Raxmonovich	**177**
INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING ROLI VA AHAMIYATI Kenjayev Anvar Sattorovich., Kobilov Nozimjon Mingboyevich	**183**
TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM TALABALARINI O‘QUV-BILUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH Kobilov Nozimjon Mingboyevich., Kenjayev Anvar Sattorovich	**189**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**194**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVIY MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**198**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**204**

MUNDARIJA

PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT "PEACE" IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**209**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O'ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**215**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**224**
DIDAKTIK O'YINLARNING ONA TILI TA'LIMIDAGI O'RNI Kamolova Nilufar Saxibovna	**228**
SAVOD O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH G'iyosova O'g'iloy Sultonovna	**232**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA